

«PSIXOLOGIYA TARIHI»
FANIDAN MARUZALAR MATNI

Muallif:

Гозиева Н.Ш, Хожиматова Н

Yaratilgan:

Ангрен 2005 йил.

Kategoriya:

Педагогика

Bo'lim:

Педагогика ва психология

Universitet:

ТВДПИ

Fakultet:

Педагогика

Kafedra:

БС да педагогика ва психология

Elektron fayl turi:

RAR

Elektron fayl hajmi:

Аннотация

Psixologiya tarihi bo'yicha dastur yangi o'quv rejalariga muvofiq ishlab chiqarildi. Psixologiya tarihi o'qituvchi kadrlarni tayyorlash tizimida muhim psixologik fanlardan biridir. Bu fan talabalarni psixologiyadan umumiy nazariy bilimlar asosini egallashga yo'naltiradi. Bu kursning maqsadi – talabalarga hozirgi zamon psixologik bilimlarini egallashga va shaxsni shakllantirishga hamda etnopsixologik bilimlarni egallashga analitik nuqtai nazardan yondasha olishda yordam beradi.

Mundarija

1. Psixologiya tarihi fanining predmeti va vazifasi
2. O'rta Osiyo mutafakkirlarining psixologik qarashlari
3. Psixologik bilimlarning O'rta asrlarda va uyg'onish davrida rivojlanishi
4. Ong haqida tushuncha
5. Ruh haqida tushuncha
6. Psixologiyaning ong haqidagi bilimlar doirasining rivojlanishi
7. Psixologik bilimlarning ruh haqidagi ta'minot asosida rivojlanishi
8. Xulq – atvor haqidagi ta'limot
9. XIX asrning birinchi yarmida nemis emperik psixologiyasining mustaqil fan sifatida rivojlanish
10. XIX asrning ikkinchi yarmida psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi
11. Garb psixologiyasida ongli Krizisning vujudga kelishi va psixologiya maktablarining shakllanishi
12. Antik psixologiya

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYAT DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

BTM FAKULTETI

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIKA VA
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

“PSIXOLOGIYA TARIHI”

FANIDAN MARUZALAR MATNI

Tuzuvchi: G'oziyeva N. Sh.
Xojimatova N.

Taqrizchi: katta o'qituvchi
Norimbetov T. B.

Angren – 2005

Maqsad: Psixologiya fanini o'rganmoq uchun uning qadimgi tarixini bilish, uning maqsadi, vazifasi, predmeti, ilmiy va falsafiy qarashlarini o'rgatishdan iboratdir.

Metodik ta'minot: mavzuga oid savolli kartochkalar va tarqatmali materiallar

Adabiyotlar:

1. M.G.YAroshevskiy «Istoriya psixologii» Moskva. Izd. «Nauka» -1979 yil.
2. A.N.Jdan. «Psixologiya ot antichnosti do nashix dney» Moskva, «Nauka» - 1989 y.
3. Yu.B. Gippenreyter «Vvedenie v obshuyu psixologiyu» Moskva, Izd. MGU-1098 g.

REJA:

1. *Psixologiya tarixining kelib chiqishi.*
2. *Idealistik va materializm oqimining asoschilari va ularning ta'limiy fikrlari.*
3. *Antik filosofiyaning rivojlanish bosqichi.*

Psixologiya tarixi fanining predmeti va vazifalari mavzusini o'tishdan maqsad, ya'ni psixologiya fani XIX asrning 2-yarmida alohida fan sifatida ajralib chiqdi, shunday ekan, demak, psixologiya fanining ilk ilmiy-dunyoviy g'oyalarini ilgari surgan olimlar va faylasuflarning ta'limotlarini o'rganib chiqamiz, ulardagi ong tushunchasi tana, ruh, jon haqidagi materialistik va idealistik oqimlari namoyondachilarining qarashlarini va asarlarini bilishdan iboratdir. SHundan avvalo insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlarga bo'lgan psixik hayot hodisalari tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo'lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to'planib borishi tarixi ekanligini tushuntirishdan deb bilamiz.

1. *Psixologiya tarixining kelib chiqishi .*

Psixologiya tarixi uzoq o'tmishdan totib to hozirgi kunga qadar psixologik haqidagi fikrlarning paydo bo'lishi va uning rivojlanishini o'rganadi. Psixologiya o'zining uzoq o'tmishiga va qisqa tarixiga ega.Psixologiya haqidagi dastlabki fikrlar bundan ikki yarim ming yil ilgari paydo bo'ldi. Psixologiya fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmigacha falsafa fanining tarkibida rivojlangan. Ilmiy psixologiyagacha bo'lgan davrda psixologiya dastlabki og'zaki fan sifatida, keyin esa yozma fan sifatida mavjud bo'ldi. SHunga qaramasdan insonlarning jamiyatga, tabiatga va tirik mavjudotlarga va ijtimoiy muhitga nisbatan bo'lgan munosabatlari ma'lum funktsiya va mexanizmlar yordamida qanday amalga oshirilishi, bu mexanizmlar asosini nima tashkil qilishi savol tariqasida namoyon bo'lar ekan. Psixologiya haqidagi dastlabki fikrlar *Antik filosofiyada* vujudga kela boshladi. Agar biz psixologiya haqidagi fikrlarning rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan

bo'lsak, bu fikrlar uzoq o'tmishdan to shu kunga qadar ikkita oqim nuqtai nazardan hal qilinib kelinmoqda, ya'ni :

- 1) *Idealistik;*
- 2) *Materialistik;*

Antik falsafada idealistik oqimning eng yirik namoyondachilari *Sokrat* va shogirdi *Platon* hisoblanadi. Ularning asosiy fikrlari idealistik nuqtai nazardan nazardan shu bilan asoslanadiki «*jon, ruh va tana alohida-alohida substantsiya hisoblanadi. Tana tirik yoki o'lik holatda materiadir, agar tanaga jon yoki ruh qo'shiladigan bo'lsa, u tirik materiyaga aylanadi va ruh paydo bo'ladi. Agar tanani jon yoki ruh tark etgan bo'lsa, tana substantsiya sifatida mavjud bo'ladi va ruh yo'qoladi. Jon yoki ruh bir tanadan ikkinchi tanaga o'tishi mumkin. U ilohiy kuchga buysungan bo'lib, u tanadan bu tanaga o'tish nafaqat ollohgagina bog'liqdir deb hisoblaydi*» Ularning bu g'oyasi Platon tomonidan yozib qoldirilgan dialoglarida o'z ifodasini topadi. Idealistik oqimining o'zi ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi:

- A) *Sub'ektiv idealizm;*
- B) *Ob'ektiv idealizm;*

Idealizm-ongning borliqqa munosabati masalasida materializmning qarama-qarshi ularoq ong, ruh-birlamchi, moddiy dunyo. Borliq-ikkilamchi, ong-sezgi. Tasavvur va tushunchalarning mahsulidir da'vo qiluvchi g'ayri ilmiy falsafiy oqim.

Sub'ektiv idealizm-fan va ijtimoiy amaliyotning dalillariga qarama-qarshi o'laroq moddiy dunyoning ob'ektiv ravishda mavjudligini inkor qilib, reallik deb faqat individual ong sub'ektiv (ichki) sezgi obrazlarini tan oluvchi idealistik oqim.

Sub'ektiv idealizmning antik falsafadagi eng yirik vakili *Sokrat* hisoblanadi. Uning shogirdi *Platon*, o'zining dastlabki qarashlarida sub'ektiv idealizm g'oyalarini targ'ib qilgan bo'lsa ham, keyinchalik o'zining dunyoqarashi bilan ob'ektiv idealizm namoyondalariga aylanadi. Masalan: Platonning «Teatet» asarida uning ob'ektiv idealizm haqidagi fikrlari o'z ifodasini topadi. Platon o'zining dunyoqarashi bo'yicha ilohiy substantsiya sodiq bo'lsa ham, o'z qarashlarida materiaya haqidagi g'oyalarni ham targ'ib qiladi.

Antik falsafadagi bu ikkita vakildan tashqari qolgan yirik vakillarining hammasi materialistik oqim vakillari hisoblanadi.

Materializm – falsafadagi asosiy oqimdan biri, ya'ni idealizmga qarama-qarshi o'laroq, birdan-bir ilmiy, tarixan rivojlangan dunyoqarashdir.

Materializm: dunyo o'z tabiatiga ko'ra moddydir, materiya tabiatan borliq, inson ongidan tashqari, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir; materiya birlamchi hamda sezgilarning manbaidir, ong esa ikkilamchi, hosila narsadir. Dunyo va uning qonuniyatlarini to'liq bilish mumkin, deb ta'lim beradi.

Materialistik oqim- o'z navbatida birlamchi elementar materializm oqimlariga bo'linadi. Birlamchi materializm oqimining asosiy vakili *Demokrit* hisoblanadi. Demokrit jon va ruh haqidagi fikrlarni quyidagicha ifodalaydi. YA'ni tana va ruh ma'lum jismlardan tashkil topgan bo'ladi. Ruhning asosini molekulalar tashkil qilib bu molekulalar atomlardan iborat bo'ladi. Agar tanadagi atomlarning birikishi vujudga kelsa, tirik organizmlarning ruhi vujudga keladi. Agar atomlarning ajralib ketishi vujudga kelsa, tanani ruh tark etadi. Ruhning asosini atomlar tashkil etadi degan g'oni ilgari suradi.

Demokritning fikridan kelib chiqqan holda XUSH asrda ingliz filosofiyasida atomistik psixologiya vujudga keldi va keyinchalik xuddi shu psixologiya assotsativ psixologiya maktabiga aylandi. Platon ob'ektiv idealizmni targ'ib qilgan holda antik falsafada dualizm yo'alishiga asos soldi.

Antik falsafaning birlamchi materializm g'oyalarini targ'ib qilgan faylasuflardan biri Milet maktabining vakillaridir. Uning asoschisi grek faylasufi Fales hisoblanadi. Fales jon va ruh haqidagi va uning asoslari haqida quyidagi fikrlarni ilgari surdi. Uning fikricha *«jonning ruhning asosini aohida xossaga ega bo'lgan materiya hosil qiladi, ya'ni jonning asosini (suv) tashkil qiladi»* degan fikrni ilgari suradi.

Uning shogirdlari Anaksimen va Anaksagorlarning ruhning asosini ma'lum moddiy asosini materiyadan izlab, Anaksamen ruhning asosini (havo) tashkil qiladi desa, Anaksagor esa (olov) tashkil qiladi degan.

Materialistik oqim vakillari idealistik oqim g'oyalariga qarshi fikrlarni ilgari suradilar, materialistik oqim vakillarining fikricha dunyoning asosida bitta moddiy narsa yotadi. Inson va uning ruhiy hayoti ham ana moddiy narsadan iboatdir deganlar.

Antik falsafaning eng yirik namoyondasi, psixologiya haqidagi dastlabki ilmiy mulohazalarini keltirgan faylasuf Aristotel' (Arastu) hisoblanadi. Shuning uchun hamki u *«psixologiya fanining otasi»* degan nom olgan. Platonning shogiri bo'lgan Aristotel' o'z ustozining fikrlariga tanqidiy yondoshib, o'zining *«Jon haqidagi ta'limot»* asari bilan psixologiyaga asos soldi. U *«ruhni tana bilan uzviy bog'liq»* dedi, uning fikricha ruh-bu moddiy ham emas, balki moddi narsalarga xos bo'lgan hodisadir. Aristotel' birinchi bo'lib ruh va jonli tanning ajralmas ekanligi g'oyasini ilgari surdi. Uning bu asari XUP-XUSH asrga qadar ko'pgina ilmiy dargohlarda psixologiya bo'yicha o'quv qo'llanmasi sifatida qo'llanib kelingan.

Antik filosofiyada – Sakrat, Platon, Aristoteldan tashqari taxminan eramizdan avvalgi 2-1chi asrlarda Epikur, Lukretsi Kar kabi faylasuflar ham jon haqidagi ta'limotning rivojlanishiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan. Bu mutafakkirlar o'zlarining avvalgi ilgari surilgan psixika haqidagi ta'limotning boyitibgina qolmasdan, balki yangi-yangi fikrlarni ilgari surdi. Umuman antik filosofiyada psixika haqidagi ta'limotning ko'pgina ko'rinishlari fikrlar tarzida rivojlandi. Masalan: antik filosofiyada sezgilar haqida (idrok) insonning fikrlash qobiyati haqida insondagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar haqida (iroda effektiv holatlar), birlamchi materializm nuqtai nazardan ilg'or ilgari surildi, shuning uchun ham antik filosofiyani biz tug'ridan-tug'ri antik psixologiyaning rivojlanish tarixi, deb ayta olamiz deydi. Rus olimi A.N.Zdan, - agar biz psixologiya tarixining rivojlanishini asosan 2 davrga bo'ladigan bo'lsa:

Birinchi davrga- psixologiyaning falsafa tarkibida rivojlanishi. Bu davr er.avvalgi U1 asrdan 19 asrning 60 yillarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davr 4 bosqichni o'zida aks ettiradi.

1-bosqich: Eramizdan avvalgi U1 asrdan bizning eramizning U asrgacha bo'lgan davr, bu davrda psixika haqidagi fikrlarning paydo bo'lii va ularning ma'lum nuqtai nazardan rivojlanish davrini o'z ichiga oladi. Bu fikrlar va nuqtai nazarlar, bu bosqichda asosan materializm va idealizm nuqtai nazardan hal qilingan. Bu davrga antik filosofiya vakillri eramizdan avvalgi U1 asrdan 1

asrgacha bo'lgan va antik vrachlarning olib borgan izlanishlari va ularning nuqtai nazarlari kiradi.

2-bosqich: eramizdan avvalgi U asrdan USH asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrdan jon haqidagi ta'limotning filosofiyada rivojlanishi va tibbiyot fanlarining yutuqlari bilan mustahkamlanishi, buning natijasida Tomik psixologiya vujudga keldi va dastlabki metodologik asosni shakllanishi uchun uchun dunyoqarashlarning vujudga kelishidir.

3-bosqich: XIU asrdan XU1 asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Uyg'onish davri, anatomo-fiziologik tadqiqotlarning vujudga kelishi, fan yutuqlari yordamida psixologiya ta'limotining rivojlanishi, xuddi mana shu davrda jon ta'limoti tushunchasi o'rniga psixologiya termini vujudga kelishi.

4-bosqich: XUP asrdan XIX asrning 60-yillarigacha, Ong haqidagi ta'limotning vujudga kelishi va psixologiyaning nazariy asoslarining shakllanishi, psixologiya dastlabki maktablarning vujudga kelishi.

Antik-bu qadimgigacha bo'lgan davr hisoblanadi. Antik-falsafadagi jon haqidagi ta'limotning yoki jonning vujudga kelishi haqidagi tushunchalar, antik vrachlarning tadqiqotlari va o'zlarining tushunchalari bilan mustahkamlangan. Antik vrachlar o'zlarining dunyoqarashi va psixika haqidagi fikrlar bilan antik faylasuflar g'oyalarini rivojlangan va ba'zi paytlarda esa bu filosoflarga qarama-qarshi fikrlarni ilgari surgan.

Masalan: Eramizdan avvalgi P asrda qadimgi Rim vrachi A. Kartonskiy , Aristotel' fikrlariga qarama-qarshi ravishda har qanday fikrning vujudga kelish asosini mavjud degan materialistik g'oyani ilgari surdi va bu fikrlarning asosi boshda joylashgan degan dastlabki tushunchani yuzaga keltirgan. Eramizdan avvalgi 1 asrda o'z davrining buyuk vrachi bo'lgan Gippokrat o'zining meditsina sohasida olib borgan tajribalar asosida inson organizmida 4 ta suyuqlik mavjud ekanligini aniqligi **1) linfa, 2) qizil qon, 3) sariq o't, 4) qora o't** suyuqligi deb topgan. Buning asosida tirik organizmida 4 xil temperament mavjud degan fikrni ilgari surdi.

- 1) ***Qon suyuqligi bosimi bo'lsa-sangvinik temperament***
- 2) ***Organizmida linfa suyuqligi bo'lsa-xolerik temperament***
- 3) ***Agar organizmida sariq o't suyuqligi bosimi bo'lsa-flegmatik temperament***
- 4) ***Organizmida qora o't suyuqligi bo'lsa-melanxolik temperament***

Gippokratning bu ta'limoti XX asrning boshlariga qadar (Pavlov ta'limotiga qadar) psixologiya, meditsina va falsafa fanlarida eng asosli ta'limot hisoblangan. Gippokrat o'zining fikrlari bilan antik falsafadagi ta'limot jon haqidagi ta'limotining meditsina nuqtai nazardan boyitdi va antik falsafaga qarama-qarshi ravishda jonning vujudga kelishi asosini meditsina fani nuqtai nazaridan aniq tasvirlab beradi.

Hozirgi kunda Gippokrat ta'limotida qisman bo'lsa ham Sxlolastika bulishi bilan bir qatorda, o'z zamonasiga nisbatan juda oldinlab ketish xususiyatini ta'kidlaganmiz. Bizning 1-P asrda boshqa bir qator, ya'ni Rimlik vrach Galon antik falsafadagi fikrlarni hisobga olgan holda va o'zidan oldingi tibbiyot vakillari Kartonskiy va Gippokratning ta'limoti to'liq o'rgangan holda o'z zamonasiga nisbatan ancha oldin fikrni ilgari surgan. U dastlab nerv yo'lari

haqidagi fikrlarni yuzaga keltira boshladi. Gallening fikricha xuddi shu nerv yo'llari jonning vujudga kelish asosi degan fikrni ilgari surdi.

Jon haqidagi ta'limot o'zining rivojlanish tarixida meditsina sohasidagi bu yutuqlariga qaramasdan falsafiy nuqtai nazarga ko'proq bog'liq ekan. SHuning uchun falsafa sohasidagi g'oyalar psixologiya tarixining birinchi bosqichida asosiy o'rinni egallaydi. Psixologiya tarixining ikkinchi bosqichi U-USH asrni, davrni o'z ichiga olib, bu davrda jon haqidagi ta'limot asosan falsafiy nuqtai nazardan qaralgan. SHunga qaramasdan bu davrda jon haqidagi ta'limot bo'yicha turli mexanistik qarashlar vujudga kela boshladi. Bu davrda vujudga kelgan sxolastika, Stoydlarning dunyoqarashlari va jonning vujudga kelishi oddiy mexanizmlarning ishi degan tushunchani tushunishi dunyoqarashlar vujudga keladi va bularning hammasi psixikani o'rganishda Tomik psixologiyaning shakllanishidir.

-SHunday ekan psixologiyani o'rganish bizning eramizgacha bo'lgan davrdanoq buyuk mutafakkirlar va faylasuflar jon haqidagi va ruh, tana haqidagi ta'limotlarning, ularning vujudga kelishi va keyinchalik esa olimlar tomonidan yanada chuqurroq o'rganilib chiqilib, psixologik faniga asos solindi. SHu bilan birga bu ilmiy g'oyalar asrdan asrga qadar to'ldirilib, boyitilib bizgacha etib keldi.

Tayanich tushunchalar:

Antik filosofiya, idealizm, materializm, atomistik, assotsiativ psixologiya, Tomik psixologiya, Sxolostika, Stoyd.

Nazorat savollari:

1. *Antik filosofiya deganda nima tushuniladi?*
2. *Psixologiya tarixi fanining predmeti?*
3. *Psixologiya tarixi fanining vazifalari va maqsadi?*
4. *Ilmiy qarashlar antik filosofiya da nechta oqim asosida o'rganilgan?*
5. *Idealizm oqimi deganda nima tushuniladi? Uning asoschilari kimlar?*
6. *Materializm oqimi haqida ma'lumot bering.*
7. *Idealistik oqim necha ko'rinishga ega?*
8. *Demokrit kim, uning hayoti va ijodi?*
9. *Millat maktabining vakillari haqida ma'lumot bering?*
10. *Antik falsafaning eng yirik namoyondachilaridan biri kim?*
11. *Psixologiya tarixining rivojlanishi asosan necha davrga bo'lib o'rganamiz?*
12. *2-davr necha bosqich asosida amalga oshiriladi?*
13. *Eramizdan avvalgi 1 asrda buyuk vrach kim va uning inson organizmini o'rganib chiqib nimani aniqlagan?*

14. *Rimlik vrach Galan antik falsafadagi fikrlarni hisobga olgan holda qanday fikrlarni ilgari surdi?*
15. *Tomik psixologiya nima?*

2-mavzu: O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING PSIXOLOGIK QARASHLARI.

Maqsad:

Psixologiya fanining ilk g'oyalari albatta O'rta Osiyo mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan, shuning uchun ham biz psixologiyani falsafiy nuqtai nazardan o'rganamiz, ya'ni ulug' va buyuk mutafakkirlarning ilmiy g'oyalari, qarashlari, asarlari haqida.

Metodik ta'minot:

Mavzuga oid rasmlar, tarqatmali kartochkalar.

Adabiyotlar:

1. P.I.Ivanov «Umumiy psixologiya». Toshkent «O'qituvchi» - 1967 yil.
2. Z Turaqulov ,S.Rahimov. «Abu Rayhon Beruniy v ta'lim tarbiya haqida» Toshkent «O'qituvchi»-1992 yil.
3. «O'rta Osiy mutafakkirlarining hayoti va ijodi» xrestomatiyasi. Toshkent «Fan» 19 yil.

REJA:

1. *Psixologiyaning O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi.*
2. *Al Farobiy va Abu Rayhon Beruniyning psixologik qarashlari.*
3. *Ibn Sino va M.Qoshg'ariylarning falsafiy va psixologik qarashlari.*
4. *U.Kaykovus, A.Jomiy va J. Davoniyning psixologiya fani haqidagi fikrlari.*

Umumiy tarix doirasida ham o'rta asrlarda SHarq uzoq vaqt g'arbga nisbatan ilgari ketgan. Xitoy, Hind, Arab, Eron, O'rta Osiyo madaniyati bu davrda /arbga nisbatan erta rivojlangan.

O'rta Osiyoda ilm-fan ma'rifatning rivojlanishi, bu hududdagi ilmiy dunyoqarashlar bilan belgilanadi. Bizning davrimizgacha arab istilosigacha bo'lgan davrdagi ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Chunki arab xalifaligining O'rta Osiyoga Islom dinining yoyilishi va buning oqibatida O'rta Osiyoda bu diniy qarashlariga qarama-qarshi bo'lgan yozma adabiyotlarning hammasi mutlaqo yo'q qilib yuborilgan. Bundan tashqari O'rta Osiyodagi o'zaro feodal urushlar ham ilm-fan va madaniyatning taraqqiyotiga salbiy ta'sir etgan. XSH asrda O'rta Osiyoni mo'g'ullar bosib oladi va o'rta asrlarda yaratilgan fan va madaniyat sohasidagi ilmiy adabiyotlarning to'plangan qismi shu bosqinchilar tomonidan yo'q qilib yuboriladi. SHunga qaramasdan O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat yuqori darajada rivojlangan deb ayta olamiz.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda qator-qator olimlar, mutafakkirlar yashab ijod etgan. Ular faqat dinga talluqli fanlardangina rivojlanib qolmasdan, ilm-fanning shunday sohalari: riyoziyot, falsafa, astronomiya, meditsina, pedagogika, anatomiya, etika-estetika, psixologiya va hakazo fanlar bo'yicha butun jahon tan oladigan darajada ilmiy asarlar yaratgan. Bu asarlarni faqat O'rta Osiyo

kitobxonlari o'qib qolmasdan, balki butun jahondagi taraqqiyparvar mutafakkirlar ham o'quv risolasi sifatida foydalangan, ana shunday olimlardan biri Abu Nosir Muhammad Ibn Tarxan (Al Farobiy)-870-950 yillarda Farob shahrida tug'ilgan. Farobiy Aristotel' va Platonning ishlarini O'rta Osiyoda keng ommalashtirgan, shuning uchun g'arbda ikkinchi muallim degan nom olgan.

Farobiy yozgan asarlaridan bizning e'tiborimizga falsafa, pedagogika, psixologiya, etika-estetika bo'yicha asarlari qiziqtiradi. Farobiyning fikricha muhit va tarbiyaning ta'sirida inson shaxsining ahloqiy sifatleri shakllanadi. Ahloqtushunchasi Farobiy inson xarakteri bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydi. Chunki xarakterdagi har bir xislatlarni yaxshi tomonga qaratib o'zgartirish mumkin. Shunga asosan inson ahloqini faqat yaxshi tomonga qaratib o'zgartirish mumkin. Uning fikricha inson shaxsining barkamol shakllanishi uchun 4 ta to'siq bor:

1. *hurmatsezlik*
2. *ahloqsizlik*
3. *o'zgaruvchanlik*
4. *ikkilanish*

Bundan tashqari Farobiy tarbiyaning qattiq va yumshoqligi haqida ham o'z fikrlarini bayon qiladi. Bu o'z navbatida tarbiya psixologiyasining asosiy g'oyasi va metodlaridan biri hisoblanadi. Uning fikricha shogirdga ta'lim-tarbiya berishda haddan tashqari qattiqqo'llik ustozga nafrat hissini uyg'otadi. Uning ruhida o'z ustoziga nisbatan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Tarbiyadagi haddan tashqari yumshoqlik esa, shogirdga ustozga nisbatan mensimaslik hissini yuzaga ketiradi. U o'z ustozini aldashga va ustidan kulishga harakat qiladi, deb tushunadi. Farobiy psixologiya sohasida aniq bir asarlar yozmagan bo'lsa ham u Aflotun (Aristotel') psixologiyasining asoslarini mahalliy sharoitda moslashgan holda talqin qiladi va buning oqibatida O'rta Osiyo falsafiy qarashlariga xos bo'lgan psixologik dunyoqarashlar shakllandi.

Farobiyning ilm-fan sohasidagi qarashlari o'zidan keyin yashab o'tgan mutafakkirlar-Beruniy, Ibn Sino o'z ta'sirini o'tkazdi va o'z navbatida bu mutafakkirar Farobiyning o'zlarining ustozlari deb hisoblaydi.

Abu Rayhon Beruniy-953-1050 yilda o'zining qator falsafiy asarlarida psixologik va pedagogik qarashlarini bayon qiladi. Bular inson shaxsining shakllanishi, ahloqiy kamoloti, aql-idroki, tafakkuri haqida fikrlaridir. Beruniyning «qadimgi avlodlar obidalari» asarida ba'zi odamlar shaxsining shakllanishida ularning xulq - atvorida mavjud bo'lgan ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarning shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida to'xtalib o'tadi. Bu illatlarga qarama-qarshi oqil odamlar haqida o'z fikrini bayon qiladi. Beruniyning fikricha oqil odamlarning taraqqiyoti va uning ruhiyatining rivojlanishi hech bir to'siqlarsiz ijobiy rivojlanishga ega bo'ladi deb tushuniladi. Beruniy psixologiya sohasida aniq bir asar yozmagan bo'lsa ham, Farobiy ta'limoti ta'sirida inson shaxsining kamoloti, uning aql-idroki, ruhiy taraqqiyoti haqidagi o'zining psixologik va pedagogik qarashlarini hamma asarlarda to'liq bayon qiladi.

Masalan: «Mineralogiya», «Hindiston», hislar bilan seziladigan va aql bilan bilinadigan bir qator kitobning tarjimai-degan kitob va risolalarida o'zining ruh

haqidagi qarashlari, ruhiyatning ba'zi muhim masalalarini bilish va tafakkur jarayonlari haqida juda ko'p, g'oyat qimmatli fikr-mulohazalar mavjud.

Beruniy olamni ob'ektiv reallik, inson irodasidan tashqarida mustaqil ravishda mavjud bo'lgan borliq sifatida qaraydi. Beruniy kishi ongi. Tafakkuri va ruhiyatini moddiy jismdan keltirib chiqargan holda tasavvur etadi.

Beruniy Abu Ali ibn Sino bilan bo'lgan munozaralarida barcha narsalarning asosida 5 ta element, ya'ni suv, olov, havo er, bo'shliq yotishini hamda dunyoni bilish jarayonida bilimlarimizning manbaini sezgi a'zolarimiz va ular orqali qabul qilgan hissiy bilmimiz tashkil etadi deb ta'kidlangan. U «agar sezgi a'zolarimiz bo'lmaganda olam tasavvurga ega bo'lmasdik. Umuman inson narsa va jismlarning rangini bilmagan bo'lardik» deydi. Bunda Beruniy sezgi organlar fasliyatiga baho berib materialistik pozitsiyada turganligini ko'ramiz.

Abu Ali ibn Sino - 980 yili Arshona qishlog'ida (Buxoro yaqinida) tug'ilgan. Ibn Sino o'zining ilmiy dunyoqarashi bilan butun jahonda fan taraqqiyotiga va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan olim hisoblanadi. Chunki uning asarlari jahonning hamma tillariga tarjima qilingan va o'zining hayotligi paytida Evropada Avitsina nomi bilan, uning asarlari ta'lim maskanlarida o'quv quroli sifatida foydalangan. Uning «Tabobat qonuni» asari o'sha davrdagi, keyingi davrdagi va hozirgi davrida ham tibbiyot sohasidagi olimlarning qo'llanmasi hisoblanadi. Ibn Sino «juda og'ir va mashaqqatli hayot kechirgan» shunga qaramasdan ilm-fanning hamma sohalarida o'zining o'chmas izini qoldirgan.

Ibn Sino jahonda birinchi bor psixologiya fanida tajriba amalga oshirgan alloma hisoblanadi. U emotsional holatlar bo'yicha dastlabki tajribalarni amalga oshirgan. Uning «Tadbiri manozil» asarida ta'lim-tarbiyada uning psixologik asoslariga alohida e'tibor bergan. Bu asarda alohida bob bo'lib, bu bob boalarni tarbiyalash, maktabda o'qitish deb nomlanadi.

Ibn Sino birinchi bor tarbiyada suhbat metodini qo'llashni taklif etadi. Bolalarni o'qitishda va tarbiyalashda bir guruhda yoki jamoada tarbiyalansa, ular faoliyat turlarini amalga oshirishda bir-biriga moslashadi, bir-biriga hurmat-e'tibori kuchayadi va jamoaning ta'sirida eraksiz odatlarni yo'qotadi deb ta'kidlaydi. Bu bilan u birinchi bor ijtimoiy psixologiya asoslariga ham asos soldi. Bundan tashqari Ibn Sino tarbiya metodlari haqida ham to'xtalib o'tadi. Tarbiya metodlaridan oila tarbiyasi, oilda bola tarbiyasini amalga oshirishda regional xususiyatlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sino shaxs taraqqiyotida musiqaning o'rni haqida ham to'xtalib o'tadi. U allaning ahamiyati haqida shunday deydi: «**Aytilgan qo'shiqning so'zlari tanaga qaratilgan bo'lsa, uning ohangi bolaga qaratilgan**», -deydi. Ibn Sino Aristotel' va Farobiy ta'limotiga asoslanib ruh va tana haqidagi ta'limot doirasida fikr yuritgan. Chunki u ham o'zidan oldingi allomalar kabi tana va ruh haqidagi ta'limotni, jon ta'limoti doirasida ta'kidlaydi.

Mahmud Qoshg'ariy. XI asrda yashab o'tgan alloma, Turkmaniston erlarida yashab o'tgan.

U o'sgan, ya'ni O'rta Osiyo hududida yashaydigan xalqlarning qabila va elatlarning urf-odatlarini, an'analari, e'tiqodlarini, o'zining shu davrgacha saqlanib qolgan asari «*Devoni lug'ati turk*» da bayon qiladi. Qoshg'ariy psixologiya

sohasida biron-bir to'laqonli fikr aytmagan bo'lsa ham, o'zining olib borgan izlanishlar bilan etnopsixologiyaning mo'rum yo'nalishlariga asos soldi.

Unsurmoniy Kaykovus -1022 yilda tug'ilib 63 yoshida o'zining «**Qobusnoma**» asarini yozgan. Bobosi Kobus o'ta zolim, ayovsiz xukmdor bo'lgan. «Qobusnom» asarining psixologik nuqtai nazaridan analiz qiladigan qismi-bu –27 bobi hisoblanadi. Bu bob «**Farzandlarni parvarish qilish fikrida**» deb ataladi. Unda farzandning ota-onani hurmat qilish, oila tarbiyasi, oilada ota-onaning farzandiga tarbiya berish usullari va farzandlarni parvarish qilishda uning yosh davrlarga e'tibor berish haqida to'xtaladi. Bu bob psixologik nuqtai nazardan juda ham ahamiyatga egadir.

Abdurahmon Jomiy - 1414-1492 yilda tug'ilgan. O'zining yaratgan asarlarida shaxs taraqqiyoti haqida teologik nuqtai nazardan fikr yuritgan. U birinchi bor shaxs tipologiyasini yaratgan, 6 ta tipdan iborat bo'lib, bu tipdagi shaxslar xursandchilik nima ekanini bilmaydi, degan fikrni ilgari surdi. SHulardan:

- 1 tip - Hasadgo'y(birovlarning yutug'ini ko'rolmaydi, kayfiyatini buzadi)**
- 2 tip - /iybatchilar**
- 3 tip - Tasodifat boyigan kambag'allar**
- 4 tip - Amalparastlar**
- 5 tip - Ziqnalar**
- 6 tip - Ahloqsizlar**

Bu tipologiya faqat salbiy ko'rinishlarni yoritgan bo'lsa ham (badiiy nuqtai nazardan) shaxs tipologiyasi haqidagi dastlabki klassifikatsiya hisoblanadi.

Jaloliddin Davoniy - 1427-1502 yillar, O'rta Osiyo mutafakkirlrining ichida birinchi bor psixologiya haqida traktat yozgan alloma hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim psixologiyasi bo'yicha bolalarni tarbiyalash metodlari va «**Hohishlar etikasi**» asarini yozgan. Inson xarakteri haqida batafsil to'talib o'tgan. Xarakter xislatlarni salbiy tomondan o'zgartirish mumkin, degan fikrni ilgari surgan. Davoniy bolalarning psixik taraqqiyotiga muhitning rolga yuqori baho bergan. Bundan tashqari Davoniy bolalarning qalbini toza taxtaga o'xatadi, unga hohlagan narsa yozish yoki chizish mumkin. Ularning psixikasi esa toza qog'ozga o'xshaydi va bu qog'oz uning hayotida to'ldiriladi, deb ta'kidlaydi. Uningbu fikrlarini undan 200 yil ilgari , keyin buyuk ingliz faylasufi Djon Lokk «**Tabula roza**» ta'limoti bilan fanga kiritadi, demak O'rta Osiyo mutafakkirlari o'zlarining ilmiy dunyoqarashlari bilan jahon fani taraqqiyotiga va uning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan. Ularning yaratgan asarlari fan va texnika taraqqiyotining boshlanish davrigacha o'quv qo'llanmalari sifatida qo'llanib kelgan. Ba'zi asarlari esa hozirgi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tayanch tushunchalar:

Mineralogiya, avitsina, tabobat qonuni, ijtimoiy psixologiya, regional, etnopsixologiya, teologiya, tipologiya

Nazorat savollar:

1. O'rta Osiyoda ilm-fan qanday rivojlangan yoki kirib kelgan?
2. Al Farobiy kim bo'lgan va uning falsafiy (psixologik) qarashlari qanday?
3. Abu Rayhon Beruniy insonning qaysi tomonini ochib berdi va o'zining qaysi asarida ta'kidlagan?
4. Abu Ali ibn Sino qaysi yillarda ijod etgan va psixologiya faniga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?
5. Etnopsixologiya yo'nalishining asoschisi kim? U nechanchi asrlarda yashab ijod etgan alloma?
6. U.Kaykovus qaysi asarida bolalarning yosh davrlariga e'tibor beradi?
7. «SHaxs tipologiyasi»ni kim yaratgan, ta'rif bering?
8. J.Davoniyning psixologik qarashlari haqida ma'lumot bering, (to'liq).

Mavzu: PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RTA ASRLARDA VA UYG'ONISH DAVRIDA RIVOJLANISHI.

Maqsad: Bizgacha etib kelgan psixologik bilimlarni o'rta asrlarda va ilk uyg'onish (revolyutsiya) davridagi rivojlanishi haqida ma'lumot berish.

Metodik ta'minot: rasmi kartochkalar, tarqatmali savollar, rasmi savollar

Adabiyotlar:

1. M.V.YAroshevskiy «Istoriya psixologii». M. Izd. «Nauka» 1979 y.
2. N.Jdan «Psixologiya l' antignosti» do nashix dney. M. «Nauka»- 1989 g.
3. S.L.Rubnshteyn «Osnovi obbshey psixologii» M.Ped. 1989 g.

REJA:

1. **KIRISH.**
2. **Psixologik bilimlarning uyg'onish davridagi ilm-fan taraqqiyoti bosqichlari.**
3. **O'rta asrlarda psixologiya fanining yuzaga kelishi.**
4. **Xulosa.**

Psixologik bilimlarning o'rta asrlarda va uyg'onish davrida qanday yuzaga kelishi jarayonlarini batafsil o'rganib, hozirda ilmiy izlanishlar asosida haosil bo'layotgan psixologik bilimlar darajasi bilan solishtirish orqali keng asosda o'rganib fanga tadqiq etish jarayonlarini o'rganib o'tish lozimdir.

X-XSH asrda qator Evropa davlatlarida fan taraqqiyoti asosan to'xtab qolgan edi. Bunga sabab esa bu davrda jahon davrlarida ichida dinning taqsimlanishi, bunda yana UP-USH asrda o'rta Osiyo va Arab davlatlarida musulmon dinining hukmron bo'lishi, Evropa davlatlarida esa xristianlikning katologik, iua dinlarining vujudga kelishi bu dinlar orasidagi o'z mavqeini kuchaytirish va kengroq tarqati uchun olib borgan qarashlaridir. Buning natijasida USH-XSH asrlarda bo'yoq inkvezatsiya davri boshlandi.

Din yo'llanmalariga mos bo'lmagan har qanday dunyoqarash qabul qilinmas edi. Bularga, ya'ni unga qarshi chiqqanlar esa jazolanar edi. Ilm-fan taraqqiyoti bunda skelostika yuzaga keladi. Evropada ilm-fan to'xtagan paytda, xuddi shu davrda arab davlatlarida ilm-fan taraqqiyoti o'zining eng yuqori nuqtasiga etdi.

Uyg'onish davrining asoschilaridan rus olimasi *Antonina Nikolaevna Jdanning* fikricha: «**O'rta Osiyo mutafakkirlari va arab mutafakkirlari bo'lmaganda Evropadagi va butun jahondagi fan taraqqiyoti mutlaqo yo'q bo'lib ketar edi**» deb ta'riflaydi.

Evropada buyuk invenzatsiya davrida ilm-fanga taaluqli bo'lmagan hamma asarlar yondirilib yuboriladi. Me'morchilik va madaniyatga xos bo'lmagan madaniy obidalarining hammasi vayron etiladi.

Xuddi shu davrda O'rta osiyo allomalari *Al Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy* va arab allomalari *Usmon Rushib* va boshqalar antik falsafa yuzaga kelgan bilimlarni, yunon faylasuflarining ishlarini va Evropadagi qator olimlarning ilmiy ishlarini o'zlarida saqlab qoladi. Natijada bularning ta'sirida fan taraqqiyoti tezlashtirishdagi asarlarni yaratdi.

O'rta asrlarda Evropada USH-IX asrgacha bironta ham ilmiy asar yaratilmagan, deganlari notug'ri bo'lar edi. Chunki bu davrda ilmiy dunyoqarash chuqur yo'nalishda bo'lsa ham, qator dunyoqarashlar yuzaga keldi. Bu davrda shaxs tushunchasi bo'yicha mistik dunyoqarashlar *Boyltsi UI-UP asr, F.Akvinskiy*

*XSH asr, Dunskat XSH asr, A.Dante XSH-XI asrlar R.Bekon XSH asr, Avgustin XSH asr*da diniy dunyoqarash bo'yicha fandagi qator vazifalarni hal etishga qaratilgan, ko'zga ko'ringan vakillardan biri *F.Akvinskiy 1226-1274 yil*, u yuqori lavozimdagi «dindor» bo'lib katolittsizm g'oyalari fanga olib kirgan va diniy nuqtai nazardan jon haqidagi ta'limotni hal qilishga qartilgan. Uning fikricha jon va ta'na alohida-alohida xususiyatlarga ega. Ruh tanani harakatga keltiradi. SHuning uchun har xil ko'rinishdagi ruhlar mavjud.

Masalan: o'simlik, hayvon, bunan tashqari Akvinskiy insonning ruhi faqat Allohga bo'ysunadi, bilish faoliyati yoki bilish jarayonlari faqat Alloh tomonidan belgilanadi degan tushunchani ilgari surgan. Uning qarashlari falsafada naminazilm oqimini vujudga keltirdi.

Undan so'ng *Dum Skot* va *Okanlar* inson idrokini, uning ya'ni uning aqlidan yuqori turadi deydi. Okanning dunyoqarashi bo'yicha «*Okan ustarasi*» nomini oldi va har xil hodisalar yuzaga kelishinining printsiplarini yaratishni harakat qildi. Bundash tashqari XSH asrlarda *Ekxart* jon haqidagi ta'limotda metitizmni yuzaga keltirdi. Bu olimlardan so'ng yangi oqimga nazar tashlaan olimlardan *Rodjer Bekon* hisoblanadi. XIU asrga kelib qator olimlar:

Kopernik, Kepler, Bruno, Galileolar mexanika, astanomiya va matematika sohasida yangi zamon faniga asos soldi. SHu asrda *A.Vasiliy* inson tanasining tuzilishi haqida asar yaratdi. Va *Galen* anatomiyasini fandan siqib chiqardi. *Lengel Served* esa «*Kichik qon aylanishi doirasi*» haqidagi ta'limotni yaratadi.

Nemis olimlari *R.Glklenius. O.Kosmonlar* 1590 yilda fanga «*Psixologiya*» terminini kiritdi. *R.Bekon* tonidan yangi g'oyalarning shakllanishi bo'ldi.

Xulosa:

O'rta asrlarda yuzaga kelgan psixologik bilimlar, psixologlar olib borgan ilmiy ishlar natijalari Uyg'onish davrining o'ziga xos ilmiy tajribalarini o'zaro psixologiyaga ta'siri, shuningdek hozirdagi bu ishlarni qay yo'sinda o'rganish yo'llari, usullarining fanga talqinini ochib berish orqali bilim ko'nikmalarini oshirish.

Tayanch tushunchalar:

Invezatsiya –

Sxolostika - o'rta asr feldal jamiyatidagi diniy feodalistik falsafa.

Nominalizm - idealistik falsafaning umumiy nomi.

Nazorat savollari:

1. *Nechanchi asrda Evropada ilm fan taraqqiyoti to'xtab qolgan edi?*
2. *Nima uchun invenzatsiya davri boshlandi?*

3. *Qaysi davrda shaxs tushunchasi yoki mistik qarashlar paydo bo'ldi va asoschilari kim?*
4. *Akvinskiy kim va u fanga qanday ilmiy g'oyalarni olib kirdi va qanday oqim paydo bo'ldi?*
5. *Kichik qon aylanishi doirasi haqidagi ta'limotni kim yaratgan?*
6. *Nechanchi yilda va qaysi mamlakat olimlari fanga «Psixologiya» terminini kiritdi?*

IV-mavzu: ONG HAQIDA TUSHUNCHA.

Maqsad: Psixologiyada ilk ong tushunchasini keng tadqiq qilgan holda, bu tushuncha bilim, ko'nikmaga ega bo'lish orqali ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish, hamda talabalar orasida munozarali suhbatlar orasida ong tushunchasini talqin etish.

Metodik ta'minot:

Jadval, savolli tarqatma kartochkalar,

Adabiyotlar:

1. S.G.YAroshevskiy. A.N.Jdan. Bg'Yu.B. Gippereyter «Xrestomatiya» po istorii psixologii» M.Izd. «MGU»-1981.
2. A.N.Jdan. «Istoriya psixologii» M.Nauka. –1990 .
3. A.V.Petrovskiy. «Umumiy psixologiya» T.Uzb. 1992 yil.

REJA:

1. ***Ong haqida umumiy tushuncha.***
2. ***Ongning strukturasi tuzilishi.***
3. ***Ongning muhim psixologik ta'rifi.***
4. ***Ong va ongsizlik.***

Psixika voqelikning kishi miyasida aksi sifatida har xil darajalar bilan farqlanadi.

Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan til yordamida muloqot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi. SHu ma'noda ong marksizm klassiklarining ta'kidlashicha ijtimoiy mahsul bo'lib anglagan borliqdan buyuk boshqa narsa emasdir.

Ongning strukturasi tuzilishi, uning muhim psixologik ta'rifi qanday.

Uning ***birinchi ta'rifi***-nomining o'zidayoq berilgan bo'lib, ong deganidir. Kishining ongi bizning tevarak atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. K.Marks. «***Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir***». deb yozgan edi. Ongning strukturasi muhim bilish jarayonlari kiradi. Ular yordamida odam o'z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgilar va idrokni, xotirani, xayol va tafakkurni qo'shish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida miyaga ta'sir etuvchi kuzatuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borliqning o'sha momentda kishi tasavvurida hosil bo'lgan hissiy manzarasi gavdalanadi. Xotira ongda o'tmish obrazlarini qaytadan gavdalantiradi. Xayol ehtiyoj ob'ekti bo'lgan ammo hozirgi paytda yo'q narsaning obrazli modelini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan fodalangan yo'li bilan masalaning hal etilishini ta'minlaydi. Aytib o'tilgan psixik bilish jarayonidan istalgan birining batamom barbod bo'lishiga olib keladi.

Ongning ikkinchi ta'rif unda sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasida aniq farqlanishni o'ziga ifodasini topishi, ya'ni odam «*men*» degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniqbiladi. Tirik organizmlar duyosi tarixida birinchi bo'lib unda ajralib chiqqan va o'zini atrof-muhitiga qarama-qarshi qo'ygan inson o'z ongida ushbu arama-qarshilik va tafovutni saqlab kelmoqda.

Jonli mavjudotlar ichida uning o'zigina o'zini bilishga ya'ni psixik faoliyatini o'zini tadqiq etishga yo'naltirishga qodirdir. Odam o'z hatti-harakatlarini va umuman o'zini-o'zi ongli ravishda baholaydi. «Men»ning «men emas» degan ajratish har bir kishi kishi bolaligida boshdan kechiradigan yo'l bo'lib, uni o'zidan o'zi anglashi jarayonida yuz beradi.

Ongning uchinchi ta'rif-odamning maqsadini ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashdir. Faoliyatning maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab chiqiladi. Irodaviy qarorlar qabul qilinadi. Harakatlarni bajarishning qanday borishi hisobga olinadi. Unga tegishli tuzatishlar kiritiladi va hakazo.

K.Marks **«kishi tomonidan berilgan narsaning formasini o'zgartirish bilangina cheklanmaydi, tabiat tomonidan berilgan narsalar bilan birga o'zining ongli maqsadini ham amalga oshiradi. Bu maqsad qonun sifatida kishining ish usulini va bu ishning karakterini belgilab beradi va kishi o'z irodasini ana hu maqsadga bo'ysundirish lozim»** deb ta'kidlagan edi.

Maqsadni ko'zlovchi faoliyatni amalga oshirishda va yo'nalishida kasallik oqibatida yoki biron-bir boshqa sabablarga ko'ra har qanday buzilishning yuz berishini ongning buzilgani deb qaramoq kerak.

Ongning to'rtinchi ta'rif-uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. **«Mening o'z muhimiga bo'lgan munosabatim mening ongimdir»** deb yozgan K.Marks.

Kishi ongiga muqarrar ravishda his-tuyg'ular olami kirib keladi, unda murakkab ob'ektiv eng avvalo o'zi ham jalb etilgan ijtimoiy munosabatlar o'z aksini topadi. Bu o'rinda esa (jalb etilgan) ijtimoiy boshqa ko'pgina hollarda bo'lgani kabi potologiya normal ongni mohiyatini anglab olishga yordam beradi. Ayrim ruhiy kasalliklarga chalinganda ongning buzilganligi aynan his-tuyg'ular va munosabatlar sohasidagi buzilish bilan belgilanadi:

Bemor bunga qadar behad yaxshi ko'rgan onasini suymaydigan bo'lib qoladi. YA'ni kishilar to'g'risida zarda bilan gapiradi va hakazo.

Ongning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha o'ziga xos xususiyatlari va shaklanishi namoyon bo'lishining muqarrar sharti hisoblanadi. Nutq jarayoni faoliyatida odam bilimlar hosil qiladi. Kishi dunyoga kelgunga qadar uning uchun insoniyat yaratib bergan tilda mustahkamlab unga etkazgan inson tafakkuri, boyliklari bilan o'z hayotini boyitadi. A.I.Gertsen shunday deb yozgan edi: «Har bir kishi ildizlari sal bo'lsa ham odam ato zamonlariga borib etadigan dahshatli shajaragatayanadi: sohil bo'yidagi to'lqin kabi orqamizda butun boshli okean-butun bir dunyo tarixining shiddati his etiladi: shu daqiqada bizning miyamizda barcha asrlarning g'oyalari...til, alohida ob'ektiv, sistematik unda ijtimoiy tarixiy tajriba yoki ijtimoiy ong aks etgandir. Kokret odam tomonidan o'zlashtirilgan ekan, til ma'lum bir ma'noda uning real ongi bo'lib qoladi.»

Ulug' mutafakkirlar – **«Til amaliy, haqiqiy ongdir, boshqalar uchun ham mavjud bo'lgan xuddi shu tufayli men uchun ham mavjud bo'lganongdir...»** deb

qayd etgan edi. Ong tushunchasi psixologiyada. Psixotriada va boshqa fanlarda uning yuqorida keltirilgan asosiy ta'riflarga mos keladigan ma'noda ishlatiladi.

Psixiatorlarning bemorda ong bor yoo'qligi, yo bo'lmasa buzilganligi masalalari doim qiziqtiradi, shu tufayli ular ong deganda bemorning o'z-o'ziga qaerdaligi, vaqt qachonligi, tevarak-atrofdagi vaziyat qandayligi to'g'risida o'z shaxsiy holati ham harakatlari haqida hisob berish imkoniyatlarini tushunadilar. Ong yaxshi saqlanib qolgan odam miyaga kelayotgan yangi axborotga o'zidagi mavjud bilimlarni hisobga olgan holda baho beradi va o'zini tevarak-atrofdagi muhitdan alohida ajratib, boshqa odamlarga faoliyat va vaziyatga nisbatan tarkib topgan munosabatlar sistemasini saqlab qoladi hamda ana shu barcha ma'lumotlar asosida o'z hatti-harakatini idora qiladi. Ong ijtimoiy mahsul bo'lib, faqat odamlarga xosdir. Hayvonlara esa ong bo'lmaydi. Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdan iboratdir.

Ongsizlik-kishini o'zini tuta olmaydigan qilib qo'yadigan taaassurotlar bilan bog'liq psixik jarayonlar harakatlar va holatlar yig'indisidir. Psixik holat sifatida ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunday bir shakli hisoblanadiki, bunda harakat o'rni va vaqtini mo'ljal qilish, yaxlitligi yo'qoladi, hatti-harakatining nutq yordamida boshqarilishi buziladi. Ongsizlikka quyidagi psixik holatlarni kiritish mumkin: Uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish) sezilmaydigan lekin haqiqatda ham ta'sir ko'rsatadigan kuzatuvchilarga javob reaksiyalari: oldinlari ong harakat bo'lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglanmaydigan bo'lib qolgan harakatlar faoliyatiga undovchi ammo maqsad hissidan anglanmaydigan ayrim moyillar, ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir protologik hodisalarni-alahlash, ko'ziga yo'q narsalarning ko'rinishi kabilarni ham ko'rish mumkin. shularga, asoslanib ongsizlikning ongga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lar edi.

Ongsizlik-bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning etarli darajada bir xil bo'lmagan qismiga aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda bo'lgandir.

Tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy mahsul, til amaliy-haqiqiy ongdir.

Nazorat savollari:

1. *Ong nima?*
2. *Ongning to'rtta ta'rifini keltiring.*
3. *Ongning strukturasi qanday?*
4. *CHet el olimlari ong haqida?*
5. *Ong tushunchasi Freyde talqinida?*

6. *Ongsizlik nima uning arajasi qanday?*
7. *Til bilan ongning bog'liqlik tomonlari nimada?*
8. *Ong bilan ongsizlikning farqi yoki bog'liqligi nimada?*

Mavzu: RUH HAQIDA TUSHUNCHA.

Maqsad: Ruh haqida tushuncha hosil qilgan holda, bilim ko'nikmaga ega bo'lish. SHuning uchun ruh mavzusi haqida ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish.

Metodik ta'minot:

Kartochalar, tarqatma materiallar, mavzuga oid savolli tarqatma materiallar.

Adabiyotlar:

1. Dinshunoslik . O.Umarxonova.
2. Umumiy psixologiya A.V.Petrovskiy Toshkent-2002 y.
3. «Sechenov mirovaya psxologicheska misl'» M.G. YAroshevskiy M-1980 y.
4. Osnovi obshey psixologii. Tom. S.Rubinitenti. M.-1989 .

REJA:

1. Ruh hozirgi kun talqinida.

2. Ruh diniy tushunchada.

Psixologiyada ruh haqidagi tushuncha doirasini kengaytirish orqali, ilk tushunchalarning paydo bo'lishi bu tushunchalarni hozirgi kunda qanday talqin etilishi jarayonlarini kuzatgan holda bog'liq o'zaro farq qiladigan tomonlarini solishtirgan holda o'rganish. O'rtaga tashlangan munozarali savollar orqali ruh tushunchasi haqida bilim va ko'nikmalarni yanada boyitish va ijodiy fikrlashni ta'minlash. Ijtimoiy hayot ehtiyojlari qadim-qadim zamondan kishini tevarak – atrofdagi odamlarning psixik jihatidan tuzilishi xususiyatlarini farqlay bilishga va ularni o'z hatti-harakatlarini hisobga olishga majbur etib kelgan. Dastlab bu xususiyatlar xonning ta'siri deb izoh berilgan. Xon tushunchasining paydo bo'lishi ibtidoiy xalqlarning animistik qarashlari bilan bog'liqdir.

Ibtidoiy olamning tasavvurida ruh tanadan batamom ajratilmagan bo'ladi. Bunday tasavvurlar hayot hodisalari va ongni shu jumladan ketish va shu kabilarni, noilmiy, primitiv materialistik tarzda talqin oqibatida tarkib topgandir.

Ibtidoiy odam bu xildagi hodisalarning sabablarini tushuntirib berish vositalriga ega bo'lmasdan bevosita idrok qilinadigan yurakdagi narsani haqiqiy mohiyat sifatida qabul qilib ketgan jumladan tush kurish, uxlayotganda tanani tark etib er yuzida kezib yuruvchi ruhning tsavvurlari deb tasavvur qilingan.

Ibtidoiy odam o'limni hayotiy jarayonning oxirgi bosqichi deb tushunmagan. SHu bois o'lim uyquning bir turi sifatida idrok etilib bunda ruh allaqanday sabablarga ko'ra. tanaga qaytib kelmaydi-deb izohlagan. Ibtidoiy odam bu hodisalarni taxminan quyidagicha tushungan.

R u h –kishining aynan o'zi, uning ehtiyoji va odatlarini hayot kechirish shart-sharoitlari tirik odamlarnikidir.

Marhumlarning ruhlari ham go'yo odamlarniki kabi mashg'ulotlar va sotsial-tartib mavjud bo'lgan hamjamiyatni tashkil etarmish. Tirik odamlar va

marhumlarning ruhi o'zaro aloqada bo'lib, moddiy va xo'jalik jihatidan bir-biriga bog'liqdir.

YOvvoyi odamning tabiat qarshisidagi o'jizligi sababli indivitning ham jamiyatning ham ruhdan ana shu tarzda tobeligi haqidagi tasavvurlar natijasida ruhi tabiat ibodat tarzidagi munosabatlar tarkib topdi. Bu esa dinning dastlabki shakli edi. Keyinchalik jamiyat taraqqiy eta borgan sari rejalashtirish va ijroning jismoniy mehnat va ishlab chiqarishning ma'naviy kuchlarining tabaqalashuvi sinfiy jamiyatda paydo bo'lishi va kishining mavhumlashtirilishi qobiliyati rivojlana borishi munosabati bilan jonning moddiylikdan ham tabiati haqidagi g'oyalar paydo bo'ldi. SHu bilan birga oldingi animistik afsonaviy tasavvurlar o'z ruhni borliqning naturafilosofik manzarasi nuqtai nazaridan tushuntirishga urinishlari egallay boshladi.

Insonning naturafilosoflarni Fans, Anaksimen (Er.av. U asr) va Geraklit ruhni odamning ibtidosini tashkil etuvchi narsalar, suv. Havo, olovlarning odamlar va hayvonlarga jon ato etuvchi shakli tarzda talqin qilishgan. Qadimgi yunon faylasuflarining o'ziga xos shakli materiyaning jonliligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi.

Ruh bilan aqlning tananing a'zolari bo'lgani uchun ularning o'zi ham tana hisoblanadi.

Atomislarning fikriga ko'ra sharsimon kichik va shuning uchun ham ancha harakatchan atomlardan tarkib topadi. Bu fikrning soddaligiga qarab unda jonli narsa tananing eng sodd funktsiyalardan tortib to psixikaga aql-idroklar qadar jonliligi xususiyatining materiyasigina xos xususiyat ekanligi taqdirlanishi progressiv hol edi. SHunday qilib psixik faoliyatini ilmiy tushunish yo'lidagi dastlabki yirik muvaffaqiyatlar uning fizikaviy olam qonunlariga bo'ysunishini isbot qilish bilan organizmning fiziologik tushunchasiga bog'liqligi kashf etish bilan uzviy bog'liqdir.

Aflotun psixologiyada duolizmni ya'ni moddiy va ruhiy olamning, tana bilan psixikaning ikkita mustaqil va antogonistik ibtidolari tarzida tushuntiradigan ta'limotning duolizmga qaraganda uning shogirdi Arastu eramizga qadar 384-322 yillarning ta'limotiga ancha muvaffaqiyatli ravishda ilgarilab ketdiki, u psixologik fikrlarni tabiiy-ilmiy asosga qayta ko'rib uni biologiya va tibbiyot bilan bog'ladi.

Arastuning «Jon» to'g'risidagi asari psixologiyaning bu davrga kelib o'ziga xos bilimlar sohasi sifatida ajralib chiqqanligidan dalolat beradi. Uning yutuqlari ham hafyvonlardagi ham odamlardagi konkret hayotiy ko'rinishlarni ko'rsatish.

Tasvirlash, tahlil qilish bilan bog'liq edi. Arastu ruhiy faoliyatni o'rganishning tjriba metodini ob'ektiv metodni himoya qilib chiqqan edi. Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrda psixologik g'oyalarning rviojlanishida tayanch nuqtaga asos bo'ldi. Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hayotning barcha ko'rinishlariga nisbatan qo'llanavermasdan faqat hozirgi biz psixika deb atayotgan darajaga nisbatan qo'llanadi.

Psixika kategoriyasining zamirida ong haqidagi tushuncha maydonga keldi. Kishi faqat idrok va tafakkurga ega bo'lib qolmasan balki ularning unga mansubligini e'tirof etishga ixtiyoriy harakatlar qilibgina qolmasdan balki balki bu harakatlarni uning ham kamayayotganini bilishga qodirdir. Bir vaqtlar yagona hisoblangan ruh haqidagi tushuncha organizmning tuzilish va funktsiyalarni tajriba tariqasida tadqiq etish borasidagi taraqqiyotning , shuningdek sotsial ehtiyojlarning ta'siri ostida bir qancha mayda tushunchalarga bo'linib ketdi. XUP asr biologik bilimlar taraqqiyotida yangi darni ochib berdi.

Tanaga nisbatan ham, ruhga nisbatan ham qarashlarda tub burilish yuz berdi. Inson tanasi mashinaga o'xshatiladi, texnika qurilmalarning tuzilishi qanday printsipga asoslangan deb tasavvur etiladi. Binobarin tana ham mashina singari ruhni boshqarishga muhtoj emas deb qaraladi.

Frantsuz olimi- Dekart (1595-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor tabiatga ega ekanligining kashf etilishi ana shu g'oya bilan uzviy bog'langanligidir. Ko'pina faktlar refleks haqidagi tushuncha yordamida hatti-harakata butunlayigagina izohlab berish umkinligiga shubha bildirishga majbur etadi. Lekin unga qaramay bu tushunchada qimmatbaho bir g'oya mujasamlashgan ediki, unga ko'ra organizmning faolligi moddiy a'zoga moddiy ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi. Bu g'oyadan voz kechish ruhning tanani harakatga keltiruvchi kuch ekanligi haqidagi eski asavvurlarga qaytishdan iborat bo'ladi. Fanda murakkab vaziyat vujudga keldi. Bir tomondan tirik mavjudotlarning faoligi sabablarini faqat refleks haqidagi tushuncha izohlab berar edi. Ikkinchi tomondan ushbu faollikni uni nervlarning oddiy mexanik aloqalarida tashqari olib chiqishi mumkin emasligi ko'rsatiladi.

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r :

Animistik, naturafilosofik, giloloizm

Nazorat savollari:

1. *Ruh deganda nima tushuniladi? – Ta'rif.*
2. *Ruhning diniy tomonidan qaralishi?*
3. *Ibtidoiy odam tasavvurida ruhning tushunchasi?*
4. *Nechanchi asrda biologik taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi?*
5. *Aflotunninng shogirdi kim bo'lgan o'sha davrda?*

Mavzu: PSIXOLOGIYANING ONG HAQIDAGI BILIMLAR DOIRASINING RIVOJLANISHI.

Maqsad: Ong haqidagi tushuncha doirasini kengaytirish orqali, talabalarni ushbu mavzu bo'yicha bilim, ko'nikmalar bilan qurollantirish orqali bilim doirasini nazariy jihatdan kengaytirish.

Metodik ta'minot: ko'rgazmali materiallar, rasmlar

Adabiyotlar:

1. A.N.Jdan. «Psixologiya ot antichnosti do nashix dnei». M. Nauka-1989 g.
2. M.G. YArashevskiy «Istoriya psixologii» M.Nauka.-1976 g.
3. Yu.B.Gipperreyter «Vvedenie v obhuyu psixologiyu». M.MUGU-1987 g.

REJA:

1. ***Kirish***
2. ***Ongning psixikaning kriteri sifatida ajratilishi.***
3. ***XUP asrda filosofik bilimlarda emperik psixologiyaning kurtaklari***
4. ***Assotsiativ psixologiyaning shakllanishi***
5. ***XUSH asrning oxiri XIX asrning boshlarida psixologik g'oyalarning vujudga kelishi.***

Psixologiyaning ong haqidagi bilimlar doirasini rivojlanishi XUP asrning birinchi yarmidan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. XIX asrdan so'ng psixologiya sxolastika bilimlar girdobidan asta-sekinlik bilan Emperik bilimlar doirasiga o'ta boshladi. Bu esa psixologiyani, ongni va uning kelib chiqishi haqidagi ta'limotni vujudga keltirdi.

XUP-XIX asrdagi ko'pgina olimlar ongni psixikaning kriteri sifatida ajratishga harakat qildi. Bu ta'limotga yondoshuv, ba'zi olimlarda mexanik qarashlarni, ba'zilarida senzualizmni shakllantiradi, yana ba'zilarida esa sub'ektiv idealizmni, yana elementar materializm dunyoqarash yuzaga keldi. Lekin hamma yo'nalishlarda bilish jarayonini o'rganish va bilish nazariyasini yaratish faqat ong yordamidagina amalga oshadi, degan tushunchani ilgari surdi. Bu bilimlarning rivojlanishiga va yuzaga kelishiga dastlabki harakatlarni amalga oshirgan olim **Ren Dekart** edi. Uning lotincha nomi **Kortezi (Renatoz Kortezi)** deb yuritilgan. Frantsuz faylasufi fizik va matematik (1596-1650 yillarda) Gollandiyada yashab ijod etgan. Uning nomi bilan psixik bilimlarning rivojlanishi bosqichining shakllanishi bilan bog'liqdir. Faylasufning ong haqidagi fikrlari psixologiyada psixofizik muammoni yuzaga keltirdi. Aristotelning XUP-XIX asrgacha mavjud bo'lib kelgan «Jon» haqidagi ta'limotiga tub o'zgarish kiritilgan. Psixika bu insonning ichki dunyosi va ruhiy borlig'a ega. Tanaga va tashqi materiyaga qarama-qarshi hisoblangan. Ular butunlay boshqa-boshqa deyiladi. Bu ta'limotni emperik yo'l bilan o'rganishga dav'at qiladi va sistemasini yaratdi. Uning fikrlari XIX asrning 2-chi yarmigacha falsafa fanida, so'ng psixologiya fanida ishlab chiqila boshladi. U fanga birinchi bor refleks tushunchasini kiritdi va bu tushuncha bilan hayvonlarning yashash sharoitini, ichki va tashqi dunyosini, inson hatti-harakatlarining tabiiy asoslarini o'rganishga kirishdi. Dekart yaratgan sistemasi falsafada va psixologiyadagi yo'nalishlari bir-biriga bog'liqdir. Bu uning o'limi

oldidan yozgan «Jon hohishi» (Strasti dushi) asarida yaqqol ko'zga ko'rinadi. Dekart birinchi navbatda hissiy olamni borligiga ikkilanadi. His qila olish darajasidagina biz tashqi olamni anglaymiz. His ila olmaganda esa tashqi olamni anglay olmaymiz. YA'ni bizning sezgilarimiz hamma tashqi olamni his qilish xususiyatiga qodir emas. Butun hayotimiz davomida aqalli bir marta bo'lsa ham, bizni o'z hislarimiz aldaydi, u Aristotelning jon, tana alohida-alohida,-degan fikriga qarama-qarshi chiqadi. «Men» tushunchasini shakllantiradi. «Men» tushunchasida (shubha) eng asosiy deb hisoblaydi. Agar hamma shubhali ko'rinishlardan shubhani ajratadigan bo'lsak faqat shubhaning o'zi qoladi, bu esa tafakkurdir.

Tafakkur-faqat inson aqligagina bog'liq narsa, tana esa tafakkurga, tafakkur esa tanaga bog'liq emas deydi. Uning zamondoshi Gobis Dekard fikrlariga qarama-qarshi fikr, ya'ni tanaga xos bo'lib, u nomaterialistik xususiyatiga ega bo'ladi va alohida (substantsiya) yuzaga keladi. Dekart esa **birinchi substantsiya fikrga, ikkinchi substantsiya tanaga, uchinchi substantsiya harakatga** bog'liq degan fikrga bog'liq deb hisoblab, fikr esa tanaga mutlaqo aloqasi yo'q deydi. Harakat va tananing jonga bog'liqligi mutlaqo bog'liq deb hisoblaydi. Jon hech qachon o'lmaydi, o'lim esa tananing biron-bir nojo'ya harakatlari natijasida vujudga keladi, deb hisoblaydi. Dekart hayvonlarning hayoti va hatti harakatlarini aql bilan emas, tananing mexanik xussuyatlari soat mexanizmlari kabi_ tana xususiyatlari yordamidagina amalga oshiriladi va butun umri davomida tananing butun qismida yashaydi va kun kechiradi. Dekard o'z fikrlari bilan falsafada va psixologiyada ikkita substantsiya haqidagi ta'limotni yaratdi. (Jon alohida, tan alohida). Ma'lum xato kamchiliklarga qaramasdan R.Dekart mexanik mat'erializm g'oyalarini birinchi bor fanga olib kirdi.

Benedik Spenoza psixologiyasi. (1632-1677) Buyuk Gollandiya mutafakkiri **B.Spenoza Gegelning** fikricha u R.Dekart dualizmini fandan butunlay siqib chiqargan mutafakkir hisoblanadi.

Uning asosiy ishi hisoblangan «Etika» asari faqat nomi bilangina ajralib turmasa. Asosiy fikri individual hulqni yaratish va buning asosida erkin hayotga yo'l ochish tushunchasini shakllantirish edi. B.Spenoza bilan Dekart orasidagi eng asosiy qarama-qarshi substantsiya asosida kelib chiqadi. Spenoza fikrida-borliq va substantsiya bir narsa deb tushunadi. Bu asosda borliq, narsa va predmetlar yig'indisi, borliqda yashash esa shu borliqda bor yoki yo'q bo'lishidir. Bu bilan Spenoza monistik ta'limotiga asos soldi. Dekart materiyani, borliqni ilohiy kuch yaratgan degan bo'lsa, Spenoza monistik ta'limotiga asos soldi. Dekart materiyani, borliqni ilohiy kuch yaratgan degan bo'lsa, Spenoza esa tabiat birlamchi sababga muhtoj emas deb materialistik dunyoqrashni shakllantirdi. Har qanday narsa o'zining substantsiyasiga, ya'ni moduziga ega deydi, shunga asosan tana va aql bir narsa, ikkalasi birikkan holda fikrlovchi narsani qabul qiladi. Bu esa individualizmdir. Inson bilan hayvon orasida farq bo'lib, inson o'zining tafakkuri bilan alohida substantsiyaga ega deb tushuntirdi. Spenoza bilish va effektiv holatlar haqidagi ta'limotni yaratishga harakat qildi. U bilishni to'rttaga ajratdi:

- 1) ***bilib eshitish orqali bilish asosida;***
- 2) ***tajriba asosida;***
- 3) ***sabab va oqibat orqali;***

4) *bevosita idrok asosida:*

-Fan madaniyat ishlab chiqarishning taraqqiyoti yangi bilimlar ishlab chiqarishga turtki bo'ldi. XUSH asrning o'rtalarida falsafaga Emperizm nazariyasi kirib kela boshladi. Bu nazariyaning asoschisi buyuk ingliz olimi F.Bekon hisoblanadi. Bu ta'limotning rivojlanishi va fanda mustahkam o'rin olishga Bekoning izdoshlari G.Gobos (1588-1679) va D.Lok (1632- 1709) katta hissa qo'shdi. Gobos Dekartning ikkita substantsiya haqidagi ta'limotiga qarshi chiqdi. Tana va ruh bir xil narsa deb tushuntiradi. Agar ikki xil narsa bo'lsa, u bir-birini yo'q qiladi. Ong-esa bu harakat tushunchasi bilan vujudga keladi. Sezgi-bu organizmlarimizning harakati deb tushuntiradi. Psixika real materiallar jarayoni soyasi bo'lib, uning sababini parallelizm ruhida tushuntirishga harakat qildi. Gobosning eng asosiy fikri-bu obrazlardir. U qobiliyatlar haqidagi ta'limotga ham asos soldi. Qobiliyatlarning tug'ma bo'lishi mumkin emas, tug'ilgan vaqtda hamma bir xil bo'ladi degan epifenomenni fanga kiritdi. U sub'ektsiz psixologiyani vujudga kelishiga harakat qildi. Ongni esa mazmunning mexanik harakatlari kartasidan ko'chirma deb qaradi. SHaxs esa mutlaqo psixologik ma'noga ega emas deb hisoblaydi. Emperik psixologiyaning eng asosiy otasi- bu ingliz faylasufi, pedagogi va davlat arbobi **D.Lok** hisoblanadi. Uning asosiy izlanishlari bilishning kelib chiqishi va hajmi hisoblanadi. O'rta asr sxolastikasi va Dekart ta'limotiga qarshi chiqqan holda inson ruhi passiv ko'rish deb hisoblaydi. Uning qalbini toza pataga o'xshatadi. Tarixiy tajriba va insonning bilish jarayonini boyitadi. Tajriba ikkita manbaga ega:

1) *sezgilar*

2) *refleksiya yoki aqlimizning ichki idrok qilish holati;*

Tajriba- ichki tashqi ko'rinishlar ega, bu ta'limot bilan u interspektiv psixologiyani vujudga keltirdi. Lok ta'limotini nemis filosofi idealisti G.Lebents (1646-1716) bilan tortishuvni yuzaga keltirdi. Lebents psixofizik muammolarni hal qilishni «Garmonlar taqsimlanishi» gipotezasi orqali bayon qildi. U jon va tana alohida qonuniyatlarga bo'ysunadi. Jon maqsadli vositalarga tayanadi, tana harakatlarga tayanadi degan fikrni ilgari surdi. Lebents bilan Lokning orasidagi asosiy tortishuv-«bizning tortishuvimiz asosiy muammoga kelib taqaladi, ya'ni jon haqiqatdan ham tajribalar yordamida yoziladigan toza taxtaga o'xshaydimi yoki u biron-bir nazariya va tushunchaga asoslanadimi degan savoldir». Lebents tug'ma g'oyalarning mavjudligini ta'kidlab, olam predmetlardan iborat bo'lib, ular aqlni va fikrni yuzaga keltiradi deydi. U psixologiya faniga birinchi bo'lib appersepsiya tushunchasini kiritdi. Uning fikricha appersepsiya bu ruhning alohida kuchi bo'lib, tashqi taassurotlar bilan birgalikda bizning bilishimizni va xulqimizni aniqlaydi va qaror qabul qilishni yuzaga keltiradi. Lebents pertsepsiya va appersepsiya tushunchalari bilan bir qatorda ongsizlik muammosini ham psixologiya faniga olib keldi.

XUSH asrda ingliz psixologiyasida emperizm yo'nalishining rivojlanishi assotsiativ psixologiyaning shakllanishiga olib keldi. Bu borada qator ingliz olimlari:

***D. Berkli (1685-1753), D Km (1711-1776),
D . Gardli (1705-1757), D. Pristli (1733-1804).***

D.Berkli, Lok g'oyalarini rivojlantirib borib psixologik ta'limni sensualizmdan sub'ektiv idealizmga qarab olib o'tdi. Uning eng asosiy ishlaridan biri bo'lgan «Ko'rish nazariyasining yangi tajribasi» 1709 yildagi asarida birinchi bor uch o'lchov haqidagi fikrni kiritdi, ya'ni idrok protsessida fazo, figura, harakat.

Bundan tashqari Berkliga tashqi olamni idrok qilish bo'yicha idealistik psixologiyadagi g'oyalardan biri – «Agar men ko'zimni ochsam tashqi olamni idrok qilaman, demak mening ruhim bor. Agar men ko'zimni yumsam, men tashqi olamni idrok qilmayman, demak mening ruhim yo'q» -degan fikrni ilgari surdi.

David KM-o'zining asarlaridan biri «*Inson tabiati hag'ida traktat*» (1739) asarida assotsiativ g'oyasini ilgari surdi. Bilishning butun ishini assotsiya mexanizmlari deb tushuntirdi.

D.Gardli- vrach, ruhoni , Lokning asosiy g'oyalarini rivojlantirdi va yuksak Iksak N'yutonning fizik dunyoqarashlarini psixik jarayonlarning fiziologik mexanizmlari ilan bog'ladi. Fanda birinchi bor tafakkurni-jarayon deb hisobladi. Assatsianizm g'oyalarining fanga kirib kelishi va uning o'rganilishiga **Djon Pristli** salmoqli hissasini qo'shdi.

XUSH asrdagi frantsuz psixologiyasi.

Bu psixologiyani frantsuz ma'rifatparvar faylasuflari: **D. Lomagriy, K.Golvettsi, D.Didro, P.Golbax va ularning o'ng qanot vakillari- F.Volter, E.Kondilyak, SH.Montiske va chap qanot oqim vakili Jan Jan Russo.**

Nemis klassik falsafasida:

XUSH asrning ikkinchi yarmida Anglida shakllangan imperik psixologiya Germaniyaga ham kirib kela boshladi. 70-yillarda Lok, Yum, Gard ishlari, ulardan so'ng Bonni, Galvetsi, Kondilyak ishlari nemis tiliga tarjima qilindi. Germaniya Rene Dekard ta'limoti keng tarqalgan edi. Lebents va o'zining izdoshlari X.Vol'f (1679-1954) Lebents ishlarini sistemalashtirdi va ommalashtirdi. Germaniyada psixologiyani Lebents ta'limoti bo'yicha yaratishga harakat qildi. Hatto Vol'f, Kand shu ta'limni rivojlanyapti degan fikrni ilgari surdi, lekin Kants buni inkor qildi. X.Vol'fning sistemasi psixologiyada imperik psixologiya 1734 va ratsional psixologiya bo'limiga yo'nalishlarining kompromissi edi. SHuning uchun u 1732 yilda emperik psixologiya, 1734 yilda ratsional psixologiya bo'limiga bo'ldi.

Emperik psixologiya Vol'fning fikricha XUSH asrda keng tarqalgan jonning paydo bo'lishi haqidagi ta'limotini ilgari surish edi.

Lekin bu holatni u tushunarsiz amalga oshirdi. Psixologiyadagi o'lchov muammosini pala-partish tushuntirishga harakat qildi. Ratsional psixologiyada esa jonning o'lmasligi haqida g'oyalarni ilgari surdi. Lebents eng asosiy fikri u fan uchun qobiliyatlar nazariyasini yaratdi. Qobiliyatni birinchi hohish, ikkinchi bilish qobiliyatlariga ajratdi.

Hohish qobiliyati-kuchli va kuchsiz bo'ladi degan fikrni ilgari surdi. X. Vol'f psixologiyasini I . Kant (1724-1804) qattiq tanqid qildi. Kant fazo va vaqt idrokining shakli sifatida ilgari surilgan fikrlarni nemis psixologiyasi va idrok psixologiyasining shakllanishiga asos bo'ldi.

Kant birinchi bor psixologiya alohida fan bo'lishi kerak degan fikr tashladi.

I.G.Fixte (1762-1814) idealistik ta'limini yaratdi. «Men» tushunchasini kiritdi. Men tushunchasi sub'ekt aktivligini yuzaga keltirdi, degan g'oyani yaratdi. Fixtning shogirdi Vol'f, I.SHellin (1775-1854) o'z uztozini sub'ektivizmga ayblaydi va uni tanqid qiladi. U asosan tabiat bilan ruh orasidagi bog'lovchi degan fikrni ilgari surdi. Ongning vujudga kelishi sezgilardan-irodagacha bo'lgan rivojlanishi deb tushundi. Gegel'-(1770-1831) psixologiyada sub'ektiv ruh haqidagi ta'limotni yaratdi. Sub'ektiv ruh individual ongga ega degan individual fikrni ilgari surdi. Individual ong o'z taraqqiyotida uch bosqichga ega.

1-bosqich: tana va ruh bir-biridan ajralmas:

2-bosqich: refleksiya, ruh-ongni vujudga keltiradi;

3-bosqich: ruh aqlda o'z ifodasini topadi;

Bu psixologiyadagi ong rivojlanishiga katta turtki bo'ldi.

Lyudvig Feyerbax (1804-1872) materialistik tushunchalarni psixologiyaga kiritdi. Inson tafakkuri sub'ektga talluqli degan fikrni ilgari surdi. Psixologiyadagi antropologik printsiplarni olib kirdi.

Xulosa qilsak, demak XUP asrning ikkinchi yarmi va XUSH asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda psixologik bilimlarning rivojlanishi uchun va bu bilimlarning sxolastikada qutilishi uchun yuqoridagi omillarning hammasi o'zlarining hissalarini qo'shdilar. O'zlarining idealistik, materialistik, dunyoqarashlari bilan psixologiyaning taraqqiyotini tezlashtirdi va birinchi bor psixologiyaning ongni o'rganishga yana ong psixikasining kriteriyasi sifatida ajralishiga sabab bo'ldi va birinchi bor imperik assotsiativ psixologiya maktablarini yuzaga keltirdi.

Tayanich tushunchalar:

Sentsualizm-sezgilarnin bilishning birdan-bir manbaini tan oluvchi falsafiy oqim.

Monistik-dualizmga qarama-qarshi o'laroq dunyodagi barcha hodisalarning asosini bitta narsa yo belgi, yo materiya , yo ruh tashkil qiladi deb ta'lim beruvchi falsafiy ta'limot.

Gipoteza-tabiatda, jamiyat, va inson tafakkuri sohasidagi muayyan hodisani to'liq tushuntirish yoki isbotlash uchun etarli dalillarga ega bo'lmagan ilmiy faraz, taxmin.

Appersepsiya-idrok protsessining shhaxsning avvalgi bilim va tajribalari, qiziqishi, ehtiyoj va odatlari, psixik hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishi.

Assotsiativ psixologiya- assotsiativiyalar tushunchasining asosi bosh printsiplari deb hisoblovchi, ilmiy - g'oyaviy mohiyati jihatidan turlicha bo'lgan psixologik oqimlar yig'indisi.

Nazorat savollar:

1. *Psixologiyaning ong haqidagi bilimlar doirasining rivojlanishi qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?*
2. *Qaysi faylasufning ong haqidagi fikrlari psixologiyada psixofizik muammoni yuzaga keltirdi.*
3. *«Jon hohishi» asari kim tomonidan yaratilgan, ta'rif bering.*
4. *Nomaterialistik xususiyat deganda nima tushuniladi?*
5. *Dekart substantsiyani nechaga bo'ladi va qaysilar?*
6. *Benedik Spenoza psixologiyasi haqida ma'lumot bering.*
7. *B.Spenoza bilishni necha qismga ajratadi va har biriga ma'lumot bering.*
8. *Nechanchi asrda qaysi fanga emperizm nazariyasi kirib keldi va uning asoschisi kim?*
9. *G.Gobos nima uchun R.Dekardning substantsiya ta'limotiga qarshi chiqdi? To'liq ma'lumot bering.*
10. *Nemis faylasufi, idealisti G.Lebents ta'limiy fikrlari va g'oyalari qanday?*
11. *Assotsiativ psixologiyaning shakllanishi ?*
12. *XUSH asrdagi frantsuz psixologiyasi?*
13. *Nemis klassik falsafasi asoschilari va ularning ishlari?*
14. *I.G.Fixte, Gegel, L.Feyerbaxlarning psixologik qarashlari?*

Mavzu: PSIXOLOGIK BILIMLARNING RUH HAQIDAGI TA'LIMOT ASOSIDA RIVOJLANISHI.

Maqsad: Psixologik bilimlarni rivojlantirish asosida ruh tushunchasi ta'limoti bilan birgalikda o'rganish orqali, bilimlar saviyasini kengaytirish.

Metodik ta'minot:

Mavzuga oid tarqatmali materiallar va rasmi kartochkalar.

Adabiyotlar:

1. A.N.Jdan «Psixologiya ot antichesnosti do nashix dnei» M.Nauka-1989.
2. Yu.B.Gipperreyter «Vvedenie v obhuyu psixologiyu» M.MGU – 1987 g.
3. «Xrestomatiya po istorii psixologii» A.N.Jdan. M.G.YAroshevskiy, Yu.B. Gipperreyter M.MGU-1981 g.

REJA:

1. ***Psixologiya haqidagi ilmiy bilimlarning rivojlanishi.***
2. ***Psixologiya tarixi metodi.***
3. ***Psixologiya tarixining manbalari.***

XU asrda yashab o'tgan italiyalik filosof Lorenzo Valla shunday degan ekan. **«Tarix shunchalik foydaliki. U donishmandlik bilan to'lib-toshgandir».**

Psixologiya tarixi fanining predmeti:

Psixologiya tarixi psixologiya g'oyalarining yo'li va taraqqiyotini o'zida mustahkamlaydi. Psixologiya tarixini o'rganmay turib psixologiyada oqim va yo'nalishlarning fanga kiritgan yangiliklarini, xato va kamchiliklarini bila olmaymiz. Psixologiya tarixi fanining vazifasi esa psixika haqidagi ilmiy bilimlarning rivojlanishi va paydo bo'lishini tahlil qilishdir. Psixologiya haqidagi ilmiy bilimlarning rivojlanishining umumiy va asosiy qonuniyati g'oyalar kurashida ifodalanadi, birinchi galda (materilistik) psixikani materialistik va idealistik tushunishda ifodalanadi. Psixologiyaning butun tarixi davomida idealizm bilan materializm o'rtasida kurash ketgan. Bu kurash psixologiyaning mohiyatini tushunishga hamda insondagi psixik va fiziologik hodisalarning o'zaro munosabatlarini tushunishda ifodalangan. SHu bilan bir qatorda har ikki yo'nalish ham psixikani tushunishga o'z hissalarini qo'shganlar.

Psixologiya fanining asosiy rivojlanish qonuniyatlardan biri bu bitta asosiy nazariyani ishlab chiqishga bo'lgan intilishdir. Psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo'nalishlar bo'lishiga qaramasdan bu fanning predmeti, yana hayvon va insonlarga xos bo'lgan psixika, psixik hayot birdayligicha qo'llavoradi. Tarixiy jihatdan psixolo giyani o'rganish predmeti emas, balki shu predmetni tushunish psixik hayot mohiyatini tushunish o'zgarib keldi.

Psixologiya tarixi metodlari.

1. **Tarixiy tadqiqot metodining asosiy vazifasi.**

Tushuncha, qonun, nazariya faktlarini o'zida mujassamlashtirgan, o'rganilayotgan materiyaning tarixini izlash, ularni sistemaga solish. Bu komponentlar birgalikda tarixiy psixologik tadqiqotlarning imperikasini tashkil qiladi. Tarixchining ishi tadqiqot predmetiga tajriba va nazariy yo'l bilan yondoshishni talab qiladi. Hozirgi zamon bilan bog'liqlik professional tarixchi uchun asosiy uchun talablardan biri.

A) psixologiya tarixining asosiy metodlaridan yana biri nazariy rekonstruksiya, tarixiy –ilmiy sistemaning tanqidiy tahlili va talqini.

B) tarixiy tadqiqotning yo'nalishlaridan biri-ilmiy maktablardir. Ilmiy maktablarni o'rganish fanning rivojlanish mexnazmini o'rganishda asosiy rol o'ynaydi.

V) arxiv materialini o'rganish alohida talab qo'yadi. Bular qidirish, kompentariyalar.....

2. Psixologiya tarixida interv'yu metodini qo'llaniladi:

Tadqiqotning asosiy maqsadi bilan bog'liq bo'lgan materiallarni to'plash maqsadida, oldindan tayyorlangan savollar yuzasida bo'ladigan suhbatni o'zia ifodalaydi.

3. Biografiya va antobiografiya metodi olamning ruhiy dunyosining rivojlanishi, ilmiy faoliyatining bosqichlarini o'rganishda asosiy rol' o'ynaydi. Bu metod fanni ommalashtirishda asosiy o'rin tutadi. Ilm odamlarning hayoti ilmiy, ijodi haqida zarur ma'lumotlarni beradi. Bu borada chet el psixologiyasida «Psixologiya tarixi avtobiografiyalari» da kitobi (K.Mergison tahriri ostida) va Sovet psixologiyasida A.R.Zurinning «Bosib o'tilgan yo'l bosqichlari ilmiy avtobiografiya» kitoblari qiziqarli ishlardan hisoblanadi.

Bular psixologiya tarixining manbalari.

Psixologik bilimlar bilan bog'liq tarixiy jarayonni o'zida aks ettiruvchi materiallar va birinchi galda psixologik muammolarni tadqiq qilgan filosof psixologlarining mehnatiga doir materiallardir. Psixologik bilimlarning asosiy manbai bu jamoat tajribasidir. YA'ni xalq tabobati ta'lim va tarbiyasi, xususiy tajribasi va bu hozirgi kunga kelib psixologlar ko'proq meditsinaga asosan psixiatriyaga tayanadilar. SHuningdek boshqa fanlar tabiiy fanlar, etnografiya, tilshunoslik, antropologiya va boshqalar ham psixologiya tarixining manbalari hisoblanadi. Bu esa psixologiya tarixining boshqa fanlar tarixiga murojaati bilan ifodalanadi.

Xulosa:

Psixologik bilimlarning ruh haqidagi ta'limot asosida rivojlantirish orqali bu tushunchani yana keng o'rganishdir. Ruh ta'limotini o'rganishda tayangan asosiy tushunchalarni yoritish bilan birga ijodiy fikrlash saviyasini yanada rivojlantirish bilan boyitish lozim. Bu tushuncha predmetlarda talqin etish orqali bu tushunchaga doir bo'lgan bilim ko'nikmalar tuzilishi tizimini bir qadar bo'lsada, oshirishga erishish. Ruh haqida ma'lumotni psixologik jihatdan talqin etilganda boshqa predmetlarda talqin etilishini solishtirib o'rganish.

Tayanch tushunchalar:

Nazariy rekonstruktsiya-nazariy jihatdan taklanish;
Ilmiy maktab-; interv'yu suhbat jarayonini tashkil qilish, avtobiografiya;
Antropologiya-odamning biologik tafakkurini o'rganadigan fan;
Etnografiya-

Nazorat savollari:

1. *Psixologiya tarixi fanining predmeti?*
2. *Fanning asosiy vazifasi?*
3. *Psixologiya fani asosiy rivojlanish qonuniyatlari nimadan iborat?*
4. *Psixologiya tarixi metodlari nechta?*
5. *Tarixiy tadqiqot metodiga ta'rif va uning asosiy talablari?*
6. *Psixologiya tarixida interv'yu biografiya va avtobiografiya metodida insonning ruhiy dunyosi nimalarga bo'linadi?*
7. *Psixologiya tarixining manbalari?*

Mavzu: XULQ-ATVOR HAQIDAGI TA'LIMOTLAR.

Maqsad: Xulq-atvor ta'limoti haqida asosiy tushunchaga ega bo'lish.

Metodik ta'minot:

Mavzuga oid tarqatmali materiallar va rasmi kartochkalar.

Adabiyotlar:

1. «Psixologiya tarixi» Z.T.Nishonova Toshkent – 2001 yil.
2. M.G.YAroshevkiy «Sechenov i mirovaya psixologicheskaya misl'.» M-1980 g.
3. Xrestomatiya po istorii psixologii. M.MGU-1980 g.

REJA:

1. KIRISH;

1. *Amerikalik psixolog va fiziologlarning tanqidi.*
2. *Uotsonning psixologiya haqidagi asosiy asari.*
3. *Nazariya va yana nazariya.*
4. *Xulosa.*

Davr o'tishi bilan fikrlash almashini natijasida fan boyib boradi. YA'ni yangi bir davr psixologiya ishlab chiqirgan fikrlar o'tgan davrda yashab o'tgan olimlarning tajribalarida qandaydir o'zaro fikrlarini o'rganish orqali yangi bir tushunchani o'zimizga olishimiz mumkin. Kuzatish ishlari orqali psixolog insonlarning hamda hayvonlarning hatti-harakatlarini bir-biriga solishtirib tadqiq etganlar.

XIX asrning oxirida bir qancha amerikalik psixologlar jumladan; E. Gorandayk va Uotsonlar emperik psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Ular psixologiyada kuzatish metodini olib tashlashni taklif qildilar. Ular insonagi bo'layotgan o'zgarishlarni hammasi ong orqali emas, balki tashqi muhit ta'sirida vujudga keladi deb tushuntirdilar. Ular umuman ongni psixologiyadan olib tashlashni taklif qildilar. Psixologiya xuddi mana shu davrga kelib ikki tarmoqqa bo'linadi:

- 1) *ob'ektiv psixologiya;*
- 2) *sub'ektiv psixologiya;*

Psixologiya ruhni o'zini o'rganishdan kechganligi uchun uni ruhsiz psixologiya deb atagan bo'lsalar ob'ektiv psixologiya esa psixikasiz psixologiya deb ataganlar. SHuning uchun ham Uotson psixologiya haqidagi maxsus asarini psixologiya xulq haqidagi fandir deb nomladi.

Buxeoverzizm-inglizcha Vixeyror so'zidan olingan bo'lib, xulq-atvor degan ma'noni bildiradi. Amerika psixologiyasidagi bu yo'nalish shuning uchun Buxeoverzizm deb atalgan.

Biz odatda organizmning harakatlari, mimika, ishoralar, nutq ichki kechinmalarni faqatgina tashqi zahira deb bilamiz. Traditsion ratsionalistik va emperik psixologiya ham bizning harakatlarimizni ko'pchiligi ichki psixik kechinmalarni faqatgina tashqi ifodasidir deb izohlaydi. Buxeovirizm asoschisi Tordayk kuzatish metodi va eksperimentlar o'otkazishni asosan hayvonlarda o'tkazib, hayvonlarda malaka hosil qilish jarayonini o'rganagan Goridayk hayvonlar psixikasini o'rganishdagi xuddi shu ob'ektiv metodlarini inson psixik hayotini o'rganish ham kuchirish ham mumkin deb hisobladi. Inson xulqi reaksiyalar yig'indisi sifatida bitta emas balki butun bir qo'zg'ovchilar sistemasi bilan tashqi ta'sirda vujudga keladi. Organizmning javob harakatlar yig'indisini ro'yobga chiqarish barcha qo'zg'ovchilarning murakkab yig'indisini Buxeoviristlar fikriga insondagi ushbu harakatlar reaksiyalar ong bilan emas balki xulq-atvor bilan boshqariladi. Bunda sezgi, idrok, iroda, xayol, tafakkur kabi bilish jarayonlari tushunchalari o'rniga har xil nomlangan reaksiyalar ishlatiladi. Buxeoviristlar fikriga tashqi qo'zg'atuvchi bilan inson xulqi o'rtasida qonuniy kuchli bog'lanish mavjuddir. Buxeoviristlar fikriga psixologiya ham tabiiy fanlar singari aniq fanlar sistemasiga aylantirilishi kerak. Psixologiya endi falsafaga emas, balki ximiya, fizika, madaniyatshunoslik, biologiya, sotsiologiya fanlari bilan alohida bo'lishi kerak. Bixeovirizm fikricha psixologiyaning oxirgi vazifasi insonning butun bir jamiyatni, xulq-atvorini o'rganishdan va tashkil qilishdan iboratdir. Psixologiya har bir odamning hatti-harakatini oldindan ilmiy asosda aytib berishi kerak. Bixeovirizm nuqtai-nazaridan ta'lim va tarbiya jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchi ongiga ta'sir qilishdan emas, balki o'sha ta'sirga sharoit yaratib berishdan iboratdir.

Xulosa:

XIX asrning oxirida bir qancha amerikalik psixologlar jumladan E.Gorondayk va Uotsonlar psixologlar tajribalar asosini olib qaralganda yangi bir tushunchalarning kirib kelishi orqali ular olib borgan tajribalarni bir-biriga solishtirib natijalarini baholab borish. Insondagi o'zgarishlarga muhitning o'zaro ta'sir tomonlari hamda ongning insonda bo'layotgan o'zgarishlarga ta'sir etmasligini ilgari surganlar. Psixologiyada bu fikrlarni o'zaro tahlili orqali ijobiy, salbiy tomonlarini o'rganish. Uotson psixologiya fanining xulq-atvori haqidagi fan ekanligini ta'kidlagan bu orqali bixeovirizm tushunchasi fanga kirib kelgan va tahlil orqali o'rganilgan.

Tayanch tushunchalar:

Nazorat savollar:

- 1. Gorandayk va Uotsonlarning psixologiya haqidagi fikrlari?*
- 2. Bixeovizim tushunchasi talqini.*
- 3. Bieoviristlarning psixologiyada ya'ni insondagi qo'zg'atuvchilar haqidagi fikrlari?*
- 4. Kuzatish metodlari bilan muhitning o'zaro ta'siri va farqi?*
- 5. Qo'zg'atuvchilarning inson psixikasidagi o'rni?*
- 6. Ong tushunchasining bog'liqlik tomoni?*

Mavzu: XIX asrning birinchi yarmida nemis emperik psixologiyasining shakllanishi.

Maqsad: XIX asrning birinchi yarmida nemis emperik psixologiyasining shakllanish jarayonlari haqida bilim, bilim ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ushbu tushuncha haqida ijodiy fikrlashni boyitish.

Metodik ta'minot:

Ma'ruza matni, mavzuga oid ko'rgazmalii materiallar, tarqatmali materiallar.

Adabiyotlar:

1. A.N.Jdan. «Istoriya psixologii» Moskva –MGU-1979 g.
2. M.G.YAroshevskiy «Istoriya psixologii» Moskva. Nauka-1989 g.
3. Tafakkur psixologiyasi. E./oziev. Toshkent «O'qituvchi» 1990 yil.

REJA:

1. */arb psixologiyasida emperik psixologiyaning vujudga kelishi.*
2. *XIX asrda assotsiativ psixologiyaning taraqqiyoti va rivojlanishi.*

XUSH asrda Germaniyada inson va tabiatga xos bo'lgan konkret emperik hodisalarni, faktlarni o'rganishga bo'lgan intilish kuchayadi. Germaniyada, Angliyada vujudga kelgan emperik va assotsiativ haqidagi bilimlar keng yoyila boshladi.

Nemis psixologiyasida emperizm g'oyalariga bo'lgan qiziqish haddan tashqari kuchayib ketdi va qator olimlar tomonidan turli xil bilimlar bayon qilina boshlandi. Nemis asoschilaridan biri faylasuf psixolog va pedagog I.F.Gerbat edi. Gerbat Vol'f tomonidan ilgari surilgan qobiliyatlar nazariyasiga qarshi chiqdi. Gerbatning eng asosiy psixolog ishi «*matematika va metafizika tajribalariga asoslangan psixologiya*» haqida 1824-1825 yillarda yozilgan va psixologiya darsligi 1826 yillarda yozilgan. Gerbart o'z zamondoshlariga nisbatan ilgarilash xususiyatiga ega bo'ldi. U assotsiativ psixologiyaning tarafdori edi va uni qattiq himoya qildi. Gerbatning asosiy fikri psixologiya tajribalariga asoslangan bo'lishi kerak. Ongning faktlari qonuniyatlari va ong hodisalarini o'rganishdan iborat deb hisoblaydi. Bularning eng asosiysini ong hodisasi va faktlari ta'kidlaydi. Psixologiya fanining odamlar ustida tajriba olib borishga mutlaqo haqi yo'q deb hisoblaydi. Gerbat psixologiyasi ikki qismdan iborat.

- 1) *Jon stitistikasi*
- 2) *Jon dinamikasi*

Jon statistikasi:

Insonning muvozanatda bo'lgan va insoning dam olish , harakatsiz bo'lgan holatlarini o'rganadi.

Jon dinamikasi:

Inosnning harakatda bo'lgan holatlarini o'rganadi.

Gerbatning fikricha psixologiyaning asosiy tassurotlar psixologiyasi tashkil qiladi va tassurotlar psixologiyasi uchta oblastga bo'linadi.

- 1) *tor musaffo ong*
- 2) *ong*
- 3) *ongsizlik*

Xuddi mana shu oblastda qilingan ishga Gerbat psixologiyasiga, ostona chegara tushunchasini olib kirdi va bu tushunchani buyuk nemis psixolog fizigi Fexner psixofizikani tadbiq qildi. Gerbat psixologiya sohasida olib borgan tadqiqotlar bilan o'zining maktabiga asos soldi. Uning dastlabki o'quvchilaridan biri M.V.Darvag'in (1802-1896) matematik, faylasuf va psixolog. Uning eng yaxshi shogirdlaridan D.Vantes (1821-1864), M.Lotsarus (1824-1903), G. SHteyetal' (1823-1899).

Gerbatning bu shogirdlari o'zlari bilmagan holda etno-psixologiyaga asos soldi. CHunki ularning olib borgan tadqiqotlari antropologiya, etnografiyaga xos bo'lgani uchun bularga kiritish mumkin edi. Lekin ular ana shu ma'lumotlarni o'z zamonasiga xos ravishda psixologiya, ya'ni ong muammolari bilan bog'ladi. Vaytets o'zining o'rganish ob'ekti qilib ibtidoiy qabilalarni oldi va bu qabilalardagi ong taraqqiyotini insonning keyingi bosqichidagi solishtira olingan ma'lumotlarni ibtidoiy qabilalar antropologiyasida bayon qildi. Lotsarus va SHtoynal esa tilshunoslik muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Olingan tadqiqotlarni ong muammosi va psixologiya muammolari bo'yicha bog'lashga harakat qildi. Nemis klassik imperiyasining yana bir vakili L.G.Lotss edi. (1817-1881) Lotse Gerbatga qaraganda psixologiyaga kamroq ta'sir o'tkazdi. Lekin uning shogirdlari K.SHTulya va G.E.Mollerlar psixologiya va psixiatra fanlarida tub o'zgarishlarga asos soldi. Xotira muammosi, meditsina psixologiyasi va jon psixologiyasi ustida katta-katta tadqiqotlarni amalga oshirdi. Lotsenning dunyoqarashi Vuid va Gerongetslarning ilmiy dunyoqarashlarining shaklanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Angliyada yuzaga kelgan assotsiativ psixologiya sekin-astalik bilan Germaniyaga kirib kela boshladi va nemis emperik psixologiyasida katta ta'sir o'tkazdi va assotsiativ psixologiya g'oyalari bilan boyitib bordi. XIX asrda assotsiativ psixologiyaning vakillari T.Vrau, Jems Mill, Jon Sttart Mill, Aleksandr Mill, X.Spetsar, O.Kontlar edi. Bulardan Gerbat Spetsar va Kond psixologiyada pozitivizmga asos soldi.

Assotsitiv psixologiyaning poretivizm bilan qo'shilishi bejiz emas edi. CHunki bu haqdagi dastlabki fikrlarni Lok va bayon qilgan ei. Asstsiazim o'zining rivojlanish doirasiga ko'ra uchta bosqichga bo'ladi:

1-bosqich: *Eng quyi va eng rivojlanganligi-Gomas Vrayva J.S.Mill ishlarida ko'rildi.*

2-bosqich: *Yunon S.Millning asosiy g'oyalari, predmeti va metodlarini qayta ko'rib chiqishi va assotsiativ yo'nalishda krizisning yuzaga kelishi;*

3-bosqich: *bu bosqichga Vilgel'm Vund uning o'quvchisi Traushod, German, E.Mellar va G.Spenlar kiradi.*

Braun o'zining inson va jon haqidagi falsafiy lektsiyalari, 1820 yilda yozgan ishida to'liq g'oyalarni yoqlab chiqdi. Uning fikricha tafakkur, analiz faqat assotsiatsiyalar yordamida amalga oshadi. Assotsialarni o'rganishning kuzatish metodi edi, deb tushuntiradi. Psixik jarayonlarni o'rganishda assotsialar bilan bog'liq holda o'rganadi.

Jems Mill (1772-1836)

Ingliz tarixchisi va iqtisodchisi uning inson ruhiy hodisalar analizi 1829 yilda asarida assotsiazim g'oyalari aniq va lo'nda ifodlanganki bu nafaqat nemis assotsiativ psixologiyasida, balki ingliz assotsiativ psixologiyasi g'oyalarida aytilgan.

J.Mill assotsiazim g'oyalari tushuntirishda Gerbat fikrlariga tayangan hola ish olib bordi. J.Millning assotsiazim g'oyalarining kamchiliklarini uning o'g'li J.S.Mill (1806-1897) tomonidan qattiq tanqid qilindi. O'z navbatida D.J.S.Mill tomonidan «Logika sistemasi» 1843 yilda yaratildi va induktiv logika haqidagi fikrlar yaratgan. Kichik Millning fikriga assotsianizm logikaning predmeti hisoblanadi.

Nemis emperik vakillaridan biri **A.Bon** hisoblanadi. Uning psixologiya sohasidagi hissiyot va intellek (1818-1903), emotsiya vairoda (1859) yilda o'z ishlarida assotsiazimni haddan tashqari ulug'lamaganligi sababli assotsiazimda degreatsiyani vujudga keltirdi. Psixologiya fani uchun esa nerv sistemasining fiziologiyasining g'oyalarini olib kirdi. Nemis klassik psixologiyasining yana bir vakili Gerbat Spentser (1810-1803) hisoblanadi. U assotsiazim g'oyalarini biologik g'oyalar bilan aralashtirib yubordi va natijada psixologiyani biologik evolyutsiyaga yaqinlashtirib qo'ydi.

XIX asrda Rossiyada psixologiya fanining taraqqiyoti ingliz va nemis psixologiyasiga qaraganda ancha o'rtacharoq rivojlanish xususiyatiga ega bo'ldi. CHunki Rossiyada tabiiy fanlarning rivojlanishi psixologiya taraqqiyotiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi. Tabiatshunos olimlar K.F. Rulya (1814-1858), K.M.Ber (1845-1816) yillarning tibbiyot bilimlari sohasida olib borgan ishlari psixologiyasining tabiiy sharoitini yaratishga imkon berdi. Psixologiya sohasida P.F.Kapterov (1846-1829) pedagogik psixologiyani yaratgan A.A.Petebne (1835-1991) va uning shogirdlari V. Gulebol'd va G.G. SHterilar XIX asrdagi rus psixologiyai maktabiga asos soldi.

Xulosa.

XIX asr birinchi yarmi nemis emperik psixologiyasining rivojlanishiga hissa qo'shgan Igerbat, Fixner, G.Vantes, M.V.Darvin, G.SHteyental, G.L.Lotse, G.E.Meller, K.SHTull va hakazo olimlarning hissa qo'shgan ishlari.

Bu olimlarning olib borgan ilmiy ishlarining psixologik bilimlarini oshirishda qo'shgan hissasi haqida tahlil qilish bilan birga bilish ko'nikmalarini boyitish.

O'rta asr Uyg'onish davri psixologiyasi hamda XIX asr psixologiyasida yuzaga kelgan bilimlarni o'zaro bir-biriga bo'lgan ta'sirini farq qiladigan tomonlarini tahlil qilish orqali ilmiy ko'nikmalarni yuksaltirish va yangilashdir.

Tayanch tushunchalar:

Assotsiativ psixologiya-assotsiativ tushunchasining asosi, bosh pintsipi hisoblanadi;

Jon statistikasi- jon dialektikasi;

Intellekt, tushunish, mulohaza. Insonning umuman bilish faoliyati;

Nazorat savollar:

1. Emperik psixologiya deganda nimani tushunasiz?

2. Nemis faylasufi Gerbart qanday nazariyaga qarshi chiqdi?Va u nima yozgan?
3. Gerbat psixologiyasi necha qismdan iborat va ular qaysilar? Ta'rif.
4. Gerbatning shogirdlari kim edi va ular qanday psixologiyaga asos soldi?
5. Vaytets va Lotsarus qanday muammoalrni o'rgandi?'
6. XIX asrda assotsiativ psixologiyaning vakallari kimlar edi?
7. Assotsianizm rivojlanish doirasiga ko'ra necha qismga bo'linadi va qaysilar?
8. J.Millning ilmiy va falsafiy g'oyalari nimalardan iborat edi?
9. XIX asrda Rossiyada psixologiya fanining taraqqiyoti qanday kechdi?
10. Nima uchun Benning psixologik qarashlari degredatsiyaga olib keldi?

Mavzu: XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA PSIXOLOGIYANING MUSTAQIL FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI.

Maqsad: XIX asrning ikkinchi yarmida psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish. Hamda bu tushuncha haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Metodik ta'minot:

Mavzuga oid tarqatmali materiallar va rasmlı kartochkalar.

Adabiyotlar:

1. Istorıya psixologii. M.G.YAroshevskiy Nauka –1979 g.
2. Istorıya psixologii M.G.YAroshevskiy Nauka – 1976 g.
3. Psixologiya ot antichnosti do nashix dney.A.N.Jdan M. 1989 g.

REJA:

1. *XIX asrda fiziologik nerv sistemasi va sezgi organlarining rivojlanish taraqqiyoti.*
2. *Psixofizika va psixometrikaning vujudga kelishi.*
3. *Nomatsion fikrning biologik va psixologik mohiyati jihatidan taraqqiy etishi.*

Psixologiya fanining taraqqiyoti o'zining dastlabki rivojlanishi bosqichlarida eon haqidagi ta'limot doirasida rivojlangan bo'lsa XSH-X1U asrga kelib psixologik bilimlar falsafa tarkibida rivojlana boradi. Bunga sabab bu davrlargacha bo'lgan faktda tabiiy va gumanitar fanlar taraqqiyoti va psixika haqidagi fikrlar psixologiyasining faqat shu fanlar bilangina birgalikda rivojlanish xususiyatiga ega degan fikrni yuzaga keltirgan edi. XU1-XUP asrlarda, ya'ni USH-X1U asrgacha bo'lgan davrgacha buyuk inkvizatsiya qoldiqlarini engib o'tish va fandagi sxolastikani bartaraf qilish uchun ko'pgina olimlar falsafiy bilimlar doirasidagina majbur edilar. Psixologik bilimlarning yo'q bilib ketishi va fandagi o'z nomini yo'qotmaslikka USH-XSH asrlarda O'rta Osiyo va arab mutafakkirlari o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdi va o'z dunyoqarashlari bilan tabiiy va gumanitar fanlar yutuqlarini falsafiy bilimlarning shu jumladan psixologiyaga oid bilimlarning saqlanib kelishiga asos soldi.

Inkvizatsiya-din kuchli, qolganlari ikkilamchi, faqat dinga ishonishga, XSH asrgacha fan to'xtagan.

XIX asrning o'rtalarida psixologiyani mustaqil fan sifatida shakllanishi uchun qator ilmiy asoslar vujudga kela boshlagan. Psixologiya o'zining taraqqiyoti bo'yicha avval assotsiativ psixologiya yo'nalishi va keyinchalik empirik psixologiya vujudga kelgan bo'lsa, bu bilan u psixologiyaning mustaqil, fan sifatida shakllanishi uchun ma'lum asosini vujudga keltira boshlagan. XIX asrning o'rtalarida va ikkinchi yarmida psixologiyaning mustaqil fan sifatida ajrilib chiqishi uchun ob'ektiv sharoit vujudga kelgan. 1871 yilda T.Ribo frantsuz olimi psixologiya mustaqil fan bo'lishi kerak, chunki psixik hodisalar va ko'rinishlar shunchalik ko'pki, bularning o'z metodlari yordamida o'rganish kerak, degan bo'lsa nemis olimi N.Gord psixologiya sohasida ko'plab ilmiy asarlar bu fanning

boshqa tabiiy fanlar bilan aloqasi mavjudligini uni o'rganish ob'ekti va vazifalarining haddan tashqari ko'pligi psixologiya tarixi mustaqil fan bo'lib shakllanishga da'vat etdi. Psixologiyaning mustaqil fan bo'lishi uchun undan falsafa elementlarini chiqarib tashlash kerak va uni tabiiy fanlar yutuqlari bilan boyitish kerak degan tushunchalarni ilgari surdi va XIX asrda psixologiyaning mustaqil fan bo'lishi uchun ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar vujudga keldi.

Bular:

1. **-Sezgi organlarining fiziologiyasi va nerv sistemasi haqidagi ta'limotning rivojlanishi;**

2. **-Psixofizika va psixometriyaning vujudga kelishi;**

3. **-Psixologiyaga biologiyadagi evolyutsiya g'oyalarining kirib kelishi.**

Sezgi organlarining fiziologiyasi va nerv sistemasi haqidagi ta'limot doirasida Charlz Bel tadqiqot yo'li bilan orqa miyaning old va orqa qismdagi fikrlarini ajratdi. Bilning fikricha orqa miyaningold qismida motor nervlarining yo'nalishi ya'ni harakat funksiyalarining qismlari mavjudligini orqa qismda esa sezuvchi nervning mavjudligini isbotladi. Bu fikri bilan u reflektor yoyi haqidagi ta'limotni boyitdi, orqa miya reflektor yoyi printsipida ishlaydi degan fikrni ilgari surdi. Uning bu fikrini frantsuz fiziologi Monandi eksperimental ravishda tasdiqladi. (1822 y.) va fiziologiya afnida «*bol'moxandi*» qonuni deb nomlandi. Yangi fiziologiyaning asoschisi bo'lgan Iogan Moller (1821-1858) nerv sistema fiziologiyasi sohasida reflektor akti va reflektor yoyining, orqa miyaning reflektor tabiati haqidagi qonuniyatni ilgari surdi. Myuller bilan bir qatorda bir fikrni ingliz fiziologi M.Xoll (1790-1857) isbotladi. Bundan tashqari Myuller o'zining o'quvchisi Gelmgols bilan birgalikda sezgi organlarining spetsifik energiyasi haqidagi ta'limotga ham asos soldi. Xuddi mana shu davrda chex olimi YAn. Pruksh (1887-1869) ko'zning to'r pardasida obrazlarning hosil bo'lishi va predmet obrazlarining saqlanib qolishidagi energiyaning saqlanish qonuniyatiga ham asos soldi. Myuller idrokning fazoviy loklizatsiyasini hisobga olgan holda nativizm yo'nalishiga asos soldi Bu ta'limotni uning shogirdlari ***K.SHtruf va Erix Gerinlar*** qo'llab-quvvatladi va rivojlandi. SHu davrda nemis olimlari ***Yung*** rangli ko'rinishning uch komponentli nazariyasini yaratdi. Uning fikriga ko'ra to'r parda retseptorni o'z ichiga oldi. Bular ***qizil, ko'k, siyohrang***.

Bu uchchala rangning teng muvozanati ong rangni vujudga keltirdi deydi. Qolgan uchta rang esa u ranglarning ma'lum miqdorining qo'shilishi natijasidagina vujudga kelgan degan fikr ilgari surildi. Uning bu fikrini E.Ngerin 3 ta ko'zda fotoretseptor mavjudligi bilan boyitadi. Bu retseptorlar:

Oq-qora, qizil-yashil; sariq-ko'k;

Bu retseptorlar qarama-qarshi ko'rinishlarga ega bo'lib assimilyatsiya va dissimilyatsiya ko'rinishlariga ega bo'lib assimilyatsiya va dissimilyatsiya ko'rinishlarini vujudga keltiradi.

Assimilyatsiyaga-oq, qizil, sariq ranglar kiradi. Boshqa nemis olimi Veber (1705-1778) sezuvchanlikning farqlanish qonuniyatlari yaratdi va uch xil sezgi mavjudligini fanga kiritdi.

1. ***Bosim va ta'sir etish;***

2. ***Temperatura;***

3. ***Lokalizm;***

Bular natijasida psixologiyada o'lchov mavjud degan fikrni ilgari surdi. R.Gol's (1821-1894) nerv jarayonlarini o'rgandi. Ko'z sutrukturalarini o'rganish uchun avtomolskov yaratdi. Gol's tajribalar natijasida ko'rish va eshitish muammolari ancha ilgari surildi. Avstryalik vrach A.F. Gall' miya morfologiyasini o'rgandi va birinchi bor Franelogiya ta'limotini yaratdi. YA'ni (insonning yuz ko'ziga qarab xarakterini yaratish ma'nosi).

Per Flonerts (1782-1862) qushlar miyasini o'rgandi va ularning yarmiga ta'sir ko'rsatib, ma'lum vaqt o'tgach tiklanish xususiyatiga ega ekanligini isbotlab berdi. Frantsuz anatomi **Broka** va nemis anatomi bosh miya yarim sharlarini o'rganishda nutq faoliyatlariga xos bo'lgan donalar mavjudligini aniqladi va bu zonalar bu olimlarning nomi bilan so'zning oblastlari uchun «**bron - markazi**» (1861 yilda) va so'zning sensor oblastlari uchun «**vernin markazi**» esa psixik funksiyalarning lokalizatsiyasi ta'limotini yaratdi va keyinchalik **Xet** bu ta'limotni rivojlantirdi. Nemis olimi **Fexner** (1801-1820) psixologiya psixofizika elementlarini kiritdi va psixotrika tushunchasini ham qo'llay boshladi. Golland fiziologi **F.Donders** (1818-1889) vaqtni o'lchash metodikasi bo'yicha psixometrika ta'limi rivojlandi. Avstraliyalik fizik **Z.Eksler** fanga reaksiya vaqti terminini kiritdi. Nemis fiziologi **Lange** sensor va motor reaksiyalarini o'lchash muammosini va ustanovka muammosini fanga kiritdi. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shaklanishida uch yo'nalish biologlar salmoqli hissa qo'shdi. Bu erda asosan tabiiy eksperimentning rivojlanishi va **CH.Darvin** tomonidan yaratilgan evolyutsiya nazariyaning fanga kirib kelishi nemis olimi **K.Gorgass**ning fikricha psixologiyaga ham ko'rish durbini ham mikroskopini ham hadya etish bilan barobardir. Darvinning «**Tabiiy tanlash natijasida turlarning kelib chiqishi**» asari (1859 yil yozilgan).

Ingliz biologi **L.Morganning** «**Iqtisodiy qonuniyatlar**»

Asari **J.Libokning** «**CHumoli ari xulqi**» bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlari va **E.Gorandaykning** hayvonlar aqli bo'yicha olib borgan tadqiqotlari, psixologiyaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. XUSH asrning ikkinchi yarmiga kelgan paytda psixologiya mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Psixologiya shakllanishining dastlabki bosqichlarida uning programmasini ishlab chiqqan asosiy muammlardan biri hisoblanadi. Qator olimlar tomonidan ko'plab programmalar ishlab chiqildi. Hozirgi kunda psixologiya taraqqiyoti uchun va uning mustaqil bo'lishi uchun eng asosiy bo'lgan programmalarining ikki variantigina fanda mustaqil o'rin olgan.

1. **Vilgelm Vunt tomonidan taklif qilingan programma;**

2. **Sechenov I.M. tomonidan ishlab chiqilgan programma:**

V.V.Vunt o'zining (1832-1820) fiziologik psixologiya kursida ko'rsatib o'tdi. Birinchi programmani Vuntning asosiy tadqiqotlari idrok psixologiya bag'ishlagan bo'lib, uning asari idrok nazariyasi haqida ocherklar (1862) psixologiyaning mustaqil fan ekanligini isbotlashga harakat qildi. (1863) inson va hayvon ruhi haqida ma'ruzalar asarida inson ruhining mahsuli psixika haqida va uni tadqiq etish va o'rganish haqidagi qator fikrlarni bildirdi. Vuntning mana shu asari keyinchalik borib psixologiyaning butun bir yarmini yaratdi, ya'ni Vunt xalqlar psixologiyasiga asos soldi. Keyinchalik bu psixologiya etnopsixologiya yo'nalishini vujudga keltirdi. Vunt ikkita metoddan foydalandi.

1. **Eksperiment metodi;**

2. *Madaniy-tarixiy metod;*

Bundan tashqari eksperimental fiziologiya metodini psixologiyaga qo'lladi. 1875 yildan boshlab fiziologik psixologiyaga eksperiment metodini to'liq qo'lladi va 1879 yil psixologiya mustaqil fan bo'lib ajralib chiqdi. Leyptsig Universitetida psixologiya laboratoriyasi ochdi. (1881 yillarda).

Bu institut jahon psixologlar tayyorlash markaziga aylandi. Bular E.*Kraplin*, G.*Myuster*, *Berger*, O.*Klyupe*, F.*Kryuger*, A.*Krishman* (Germaniya), E.*Meyman*, E.*Gigner*, K.*Marbe*(Angliya), T.*Lepets*, E.*Skrigur*, F.*Engel's*, T.*Xol*, (Amerika), V.*Bexterov*, N.*Lange*, V.*Vunt*ning maktabida o'qidilar va bu maktabning birinchi qaldirg'ochlari bo'ldilar. Vunt maktabining shakllanish psixologiyasining mustaqil fan bo'lishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Vunt psixologiyaning predmeti haqidagi dastlabki fikrlarni inkor qilgan holda uning predmeti izchil tajribaga asoslanadi. Bu Maxning neytral elementlar haqidagi ta'limning davomi edi. Max falsafada ob'ektiv odam taraqqiyotiga aloqasi yo'q degan edi. SHunga asosan psixologiyani o'rganish predmeti ong hisoblanadi. Psixologiya psixik jarayonlarni o'rganish kerak degan fikrni bir o'rtaga tashladi. Vunt xulq va faoliyat tushunchalarini psixologiyadan chiqarib taladi. Assotsiyalar haqidagi g'oyalarni rivojlantirdi. Fanga appersepsiya terminini kiritdi. Vuntning fikricha appersepsiya bu ongning alohida funktsiyasi bo'lib o'zining ko'rinishi va 1881 yildan boshlab birinchi bor psixologiya jurnaliga asos soldi.

Ikki programmani Vunt bilan bir qatorda I.M.Sechenov (1828-1905) ishlab chiqdi. Sechenov harbiy dengiz bilim yurtini Peterburgdagi Moskva Universiteti Meditsina fakul'tetini tamomlab, 1863 yilda u o'zining shoh asari «*Bosh miya reflekslari*» asarini yaratdi. Bu asarida kuchli va kuchsiz harakatlarning reflektor nazariyasini yaratdi. 1873 yilda rus olimi K.D. Kovolyov bilan tortishuv natijasida o'zining kim va qanday psixologiyani yaratish asarini yaratdi. Bu asar Kovolenning psixologiya vazifalariga qarama-qarshi yozilgan bo'lib bu asarda psixologiyaning programmasini joriy qildi. 1878 yilda esa «*Fikr elementlari*» asarini yozdi. Bu asarida tafakkur haqida o'z mulohazalarini bildirdi. 1890 yilda o'zining qator maqolalari bilan tafakkur haqidagi fikrlarini mustahkamladi. Psixikaning reflektor nazariyasini yaratdi. Fiziologiya asoslariga ham ziyon etkazmagan holda psixologiya printsiplarini ishlab chiqdi.

V.Vunt g'oyalarini E.Pener rivojlantirdi. 1867-1927 psixologiyada V.Vunt yangi psixologiya asosi hisoblansa, ungacha bo'lgan davrda emperizm va assotsiatizm g'oyalari juda kuchli edi.

Bu uchchala qarash qarama-qarshi yangi dunyoqarash edi. Mana shu dastlabki dunyoqarashning shakllanish davrini avstraliyalik filosof E.Berentano (1838-1917). Uning fikricha Vuntning yangi qarashlari emperizmning g'oyalariga qarama-qarshidir. Ikkala yo'nalish ham psixologiyada aniq bir echimga ega emas. Vunt tomonidan qo'llangan eksperiment bu toza psixologiya uchun metod hisoblanadi va bu metod bilan psixologiyani rivojlanish mumkin emas deb hisoblab eksperiment metodining o'rniga Baraktano o'z-o'zini kuzatish metodini taklif qildi. Psixologiyada ruh va jon haqidagi g'oyani rivojlantirdi, uning fikricha aktlar uchta qismga ega bo'ladi:

1. *tasavvur akti;*
2. *xulosa akti;*
3. *his qilish akti;*

Aktlar ta'limoti bilan Berentano psixologiyada funktsiyalar haqidagi ta'limotga asos sola boshladi. Lekin Berentanoning o'zi funktsionalizmga qarshi edi. Uning ta'limoticha nemis psixologi Karl SHTumber (1848-1910) funktsiyalar psixologiyasini rivojlantirdi. SHTumberning fikricha ong bu faoliyatdir, uning mahsulidir. SHTumber tomonidan ilgari surilgan ta'lim AQSHda funktsionalizm oqimini vujudga keltirdi. Uni fan deb tan olmadi. Veber, Fexner, Vuntlarning fanda o'tkinchi xrona deb atadi. U psixoanaliz ta'limoti deb hisobladi, psixologiyaning asosiy ob'ekti ong hisoblanadi va shuning uchun ham psixologiyadan voz kechib psixologiyaning muamolari falsafada yoritdi. Funktsionalizm ta'limoti AQSH va 1916 yilga qadar CHIKO maktabida keng targ'ib qilindi. Bu maktabda Efkell, A.Mur, DJ, Mit, G.Kerr va boshqalar 1916 yildan keyin maktab bixeofirizm oqimiga o'tib ketdi. Funktsionalizm oqimida pedagogik psixologiya va ishlab chiqarish psixologiyasining (sanoat psixologiyasiga) olib keldi. AQSHdagi funktsionalizm oqimining o'rni strukturalizm egalladi. Xuddi mana shu davrda Rossiyada maktab Groystki (1835-1899) ingliz emperizmining tarafdori edi. D.Lok 1885 yilda Moskva psixologlar jamiyati tuzildi. N.YA.Gord (1852-1899) rus idealisti psixologiyasining rahbarlaridan biri. Bu ham jon haqidagi ta'limot doirasidagi fikrlarni bildirdi. N.I.Shirikov (1862-1936) birinchi bor Rossiyada psixologiya instituti ochdi.

N.N.Lange (1858-1921) vunt tomonidan ilgari surilgan muammosini o'rgana boshladi. Perseptsiyasining 4 ta darajasini fanga kiritdi. Umuman Rossiyada psixologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. V.Bexterov (1857-1927) Qozon Universitetida psixofizika universitetini ochdi.

Ketel Vuntning maktabida o'qigan, keyinchalik Gontoning ta'limotiga berilib ketdi va Amerikada psixologiyada psixikodinamikani yuqori cho'qqilariga olib chiqdi. 1908 yilda Amerikalik psixolog F.Pasone o'spirinlarning kasb tanlashi uchun individual konsul'tatsiya amalga oshiradi. F.Gollan (1822-1911) «Vil o'lchash muamosining asoschisi» hisoblanadi.

Golten CH.Darvin ta'limotiga asoslangan holda «Nasl va talant» asarini yaratdi. Golten o'z muammosi bilan etnopsixologiyaga ko'plab ma'lumotlarni kiritdi. Frantsuz psixologlari A.Vitni (1857-1911) vrach Siyman bilan birgalikda xalq ta'limotining buyurtmasiga ko'ra aqlni o'lchash testini chiqardi va bu test Bisty Siyton testi nomini oldi. Keyinchalik Stern EKYu tushunchasini kiritdi. Frantsuz psixologi G.Rebbo (1839-1916) psixologiyada assotsiativ rivojlanishga qattiq turdi. Eksperimental psixologiyaning rivojlanishiga ham hissa qo'shdi. R.Xane (1849-1949) fikricha psixologiyaning asosiy testi «klini testi» deydi. YA'ni «klinik ko'rsatish» deyiladi. Uning o'quvchilari A.Valon, A.Peron va J. Penelar hisoblanadi.

Xulosa.

Psixolog olimlarning o'zaro qarashlari orqali psixologiya fani manbalarini boyitib borish bilan birgalikda yangi bir yo'nalish ochganlar. Nemis ingliz psixologlarining olib borgan tadbirlari yangi tushuncha fanga kiritilib o'rganilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi bu oldingi vaqtlarda ham, hozirgi paytlar ham psixologiya fanining o'zaro farq, chegara o'xshash tomonlari solishtirib o'rganilgan.

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r :

Fazoviy lakolizatsiya – ma'lum bir joy

Komponent – biror narsaning tarkibiy qismi

Assimilyatsiya- o'zlashtirish, singdirish

Dissimilyatsiya- atamizm

Refleksologiya – Vyuzburg maktabi

Nazorat savollari:

1. *Psixologiya rivojlanishi natijasida qanday yo'nalishlar rivojlanib yuzaga kelgan?*
2. *Inkvizatsiya tushunchasi*
3. *Frantsuz olimi T.Rboboning psixologik qarashlari*
4. *N.Gorodoning psixologiya haqidagi fikrlari.*
5. *Psixologiya fanining rivojlanishi natijasida ob'ektiv va sub'ektiv omilning ta'siri.*
6. *Assimilyatsiya tushunchasi*
7. *Nemis olimlarining psixologiyaga tadbiqi va qarashlari.*
8. *Psixologiya qaysi yili alohida fan sifatida ajralib Leyptsig universitetida qachon laboratoriya (psixologiyasi) ochildi?*
9. *F.Verentoning fikricha akt necha qismga ega?*
10. *Eksperitment maktabining asoschisi haqidagi psixologik qarashlar?*
11. *Frenologiya tushunchasi, refleksologiya tushunchasi nima?*
12. *Atoizm tushunchasi haqida ma'lumot bering?*

*Mavzu: G'ARB PSIXOLOGIYA SIDA ONGLI KRIZISNING
VUJUDGA KELISHI VA PSIXOLOGIYA MAKTABINING
SHAKLLANISHI.*

Maqsad: *G'arb psixologiyasida ochiq krizisning vujudga kelishi va psixologiya maktablarining shakllanishi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish, hamda bu tushuncha haqida badiiy ko'nikmaga ega bo'lish.*

Metodik ta'minot: Adabiyotlar

1. *Xrestomatiya po istorii psixologii. M.MGU-1980 g.*
2. *«Istoriya psixologii» A.N. Jdan. M.MGU № _ -1990 g.*
3. *Tafakkur psixologiyasi E.G'oziev. Toshkent. O'qituvchi-1996 y.*
4. *«Tafakkur psixologiyasi». E.G'oziev. Toshkent «O'qituvchi 1990 yil.*

REJA:

1. *Psixologiyadagi krizis.*
2. *Bixeviorizm*
3. *Genital'psixologiya.*
4. *Psixologiyaning Rossiyada rivojlanishi.*

XX asrning boshlarida , ya'ni 1910 yillarda G'arb psixologiyasida ochiq krizis vujudga keldi. Bu krizis faqat g'arb psixologiyasida bo'lib qolmasdan rivojlangan va asosiy yo'nalishga ega bo'lgan psixologiya maktablari va ta'limotlarini qamrab oladi. Ochiq krizisning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo'ldi:

Birinchidan – *psixologiyadagi bu davrgacha bo'lgan ilmiy nazariyalarning so'nggi yillardagi tabiiy bilimlardan olingan natijalar bilan mos kelmay qolishi, ya'ni psixologiya sohasida asosiy bo'lgan g'oyalarning fiziologiya va biologiya, meditsina fanlarida va qisman eksperimental olingan natijalar bilan qarama-qarshilik vujudga keldi.*

Ikkinchidan *psixologiyaning mustaqil fan bo'lib shakllanishi uning o'z tajriba doirasiga ega bo'lishi, buning natijasida sof psixologiyaga xos bo'lgan tajribada isbotlangan nazariyaning vujudga kelishi:*

Uchinchidan *metodologiyadagi qarama-qarshiliklar L.S.Vigotskiyning fikricha psixologiya fani asrlar davomida hukmron bo'lib kelgan metodologik asoslar ko'pchilik g'oyalarda tajribada o'z isbotini topmadi.*

Buning natijasida psixologiya sohasi bilan shug'ullanuvchi qator tadqiqotchilar yangi – yangi metodologiyani taklif qila boshladi va bu metodologiya psixologiya faniga o'rinlasha boshladi. Natijada eski metodologiya bilan yangi metodologiyaning qarama-qarshi psixologiyada ochiq krizis yuzaga kela boshladi. Psixologiya fanidagi ochiq krizis 10 yillardan 30 yillargacha davom etadi. Bu davrda psixologiyada yangi oqimlar bilan maktablar

shakllana boshladi. Agar bu psixologiya oqimlariga nazar tashlasak psixologiyadagi dastlabki oqim assotsiativ psixologiya oqimi XUP asrning oxiri va XUSH asrning o'rtalarida ingliz falsafasida vujudga kelgan edi. Bu oqim assotsiativ psixologiyani yoki atamistik psixologiyani vujudga keltirgan edi.

Assotsiativ psixologiya va to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlar psixologiyasi bilan bog'liq bo'lib, emperik psixologiyagacha bo'lgan davrda psixologiyadagi eng asosiy oqim hisoblangan.

1910 yilda g'arb psixologiyasida V.Vunt., E.Giginerlar strukturalizm va AQSh psixologiyasidagi funktsionalizmga qarama-qarshi yangi oqim vujudga kela boshladi. Psixologiya tarixida bu oqim AQSh da vujudga kelgan degan ma'lumotlar mavjud va uning asoschisi D.X.Uotson (1878-1958) deb hisoblanadi. Uning 1913 yilda «Psixologiya buxaveristi» degan asari bosilib chiqdi. Bu asarda u yangi oqimning yo'nalishi tadqiqot ob'ekti, o'rganish predmeti, metodologiyasi va boshqa qator ilmiy yo'nalishlarini bayon qildi. Bu oqim Buxeovirizm oqimi degan nom oldi. Tarjimasi – *b i x v i r e a d*- xulq degan ma'noni anglatadi ,yoki *xalq psixologiyasi* degan nom oldi. Lekin ba'zi bixeovirizm oqimining asoschisi E. Gorandayk hisoblanadi degan fikrlar ham mavjud. Gorandayk Avstraliyalik psixolog bo'lib XIX asrning oxiriga qadar oq kaptarlar va oq kalamushlarda tajriba o'tkazdi.

1918 yil Korandayk hayvonlar o'rtasida olib borgan tadqiqotlari uchun Evropadan badarg'a qilindi. Amerikaning Kolerb kemasiga o'zining 100 ta katakdagi kalamush va kaptarlari bilan kelib tushadi va tadqiqotlarini davom ettiradi. Gerrandayk o'zining bu tadqiqotlari bilan bixeovirizmning ilmiy asoslarini to'liq isbotlab beradi va bu nazariy asosga ega bo'ldi. Bixeovirizmning shakllanishiga Gorandayk va Uotsondan tashqari rus olimlari I.P.Pavlov va V.M.Bexterevlarning fiziologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari ham katta turtki bo'ldi. Stimul yo'naltirilgan reaksiya formulasida ifodalanadi. **S-R.**

Bu ma'lum stimul ta'sir etganda bunga nisbatan hisob reaksiyasini qaytaradigan degan tushunchani anglatadi.

30-yillarga kelib *bixeovirizm* deb nom oldi. Ma'nosi yangi bixeovirizmni anglatadi. Uning ilmiy asosini E.Golmen yaratdi. (1888-1955) Golmen o'zining inson va hayvonlarning maqsadli xulqi 1932 yilda yozgan asarida neobixeovirizmning ilmiy metodik asoslarini bayon qilib berdi. Golmen bilan bir qatorda Amerikalik psixolog K.Xol (1884-1952) o'rganish nazariyasi bilan (Georiya naucheniya) neobixeovirizmning ilmiy asosini mustahkamladi. Bundan so'ng bixeovirizmning qator yo'nalishlari vujudga keldi. Xalqning ta'limotiga asoslangan holda neobixeovirizm da matematik yo'nalish vujudga keldi. Bu yo'nalishga N.Y.Myuler, O.G.Moverlar asos soldi.

Matematik yo'nalishdan tashqari sub'ektiv buxervirizm asoschilari D.Miler., Yu.Glanter., K.Pribramlar operal bixeovirizm asoschisi, V. Skinner (1904) neobxeovirizmning so'nggi yillardagi yutuqlarining hammasi va Amerika psixologiyasidagi mavqeiga Skinerning xizmatlari kattadir. Skinner birinchi bo'lib bixeovi rizmning klassik formulasiga ijtimoiy muhit vaziyat tushunchasini kiritdi. Klassik formula quyidagi ko'rinishni oldi.

S—R—SG'

Bunga asosan har qanday stimuly berilgan paytda javob reaksiyasini qaytarishda ma'lum vazifaga, muhitga va ijtimoiy formatsiyaga moslashadi degan fikrni ilgari surdi.

G'arb va chet el psixologiyasidagi asosiy oqimlar va nazariyalarning shakllanishi, ularning ilmiy tadqiqotlar bilan boyib borishi psixologiyaning taraqqiyotiga va uning mustaqil yo'nalishlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shu bois psixologiya psixikaning umumiy qonuniyatlari va uning rivojlanishi mexanizmlarini o'rganibgina qolmasdan yangi-yangi tarmoqlari psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi umumiy psixologiyaning fanlar sistemasida yuqori o'rinlardan birin egallashga olib keldi. G'arb psixologiyasidagi fanning taraqqiyoti va undagi ochiq krizis psixologiya maktablarining shakllanishi sobiq sovet psixologiyasini ham chetlab o'ta olmadi. Sobiq sovet psixologiyasida o'zining dastlabki kunidan boshlab yangi Oktyabr Revolyutsiyasi g'alaba qilgandan so'ng 20 yillardan boshlab psixologiyadagi tadqiqotlar, nazariya va ilmiy dunyoqarashlarni marksistik orientatsiyaga moslashtirishga harakat qildi.

Bu borada qator qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Chunki revolyutsiyaga qadar Rossiyada psixologiya fanning taraqqiyoti asosan nemis psixologiyasiga asoslana boshlagan edi. Bundan tashqari Rossiyada tabiiy fanlar juda kuchli rivojlangan bo'lib, fiziologiya sohasida Rossiya G'arb psixologiyasiga emas, balki G'arb va chet el psixologiyasi Rossiyaning ilmiy yangiliklariga tayangan holda ish olib borar edi.

Pavlov, Botkin, Sechenov, (Uxtomskiy, Semskiy) 20-yillarda psixologiyada marksistik asosda tahlil qilishda Bexterev, Karnilov, Cherenpanovlar katta xizmat qildi.

Keyinchalik Bexterev tomonidan ilgari surilgan jamoa refleksologiyasi tushunchasi ma'lum vaqt o'tgandan so'ng qattiq qarshilikka uchradi. Psixologiyada zid oqim sifatida fandan siqib chiqadi. 20-yilning o'rtalarida Lezurskiy tomonidan qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu bilan psixologiyaning materialistik asosi mustahkamlandi. Shu yillarda L.S.Vo'gotskiy (1896-1934) o'z tadqiqotlarini boshladi. Vo'gotskiyning o'zining ma'lumotlariga ko'ra huquqshunoslik fakul'teti Odessiya Universitetini yaratgan.

1925-1926 yillarda psixologiya faniga katta qiziqish bilan nazariy adabiyotlarni o'rganadi va psixologiya sifatida o'z tadqiqot ishlarini boshladi. Yaqin o'n yillar ichida qator-qator ilmiy maqolalar chop etadi va psixologiya tarixida o'chmas izini qoldirdi. Vo'gotskiy tomonidan yaratilgan g'oya sovet psixologiyasi, chet el va g'arb psixologiyasida asosiy ilmiy g'oyalarga aylandi, uning olib borgan tadqiqotlari sovet psixologiyasidagi yo'nalishlarni aniqlab berdi. Vo'gotskiy psixologiyada faqat nazariyotchi bo'lib qolmasdan buyuk nazariyalar, uning yaratgan ilmiy yangiliklari hozirgi kunga qadar ya'ni 30 yillarga kelib psixologiya Xarkov maktabi shakllana boshladi. Bu maktabga Zaporozhes, A.N.Lentev, I.Ya. Galperen, V.V Zankovlar kabi qator iqtidorli yoshlar to'plandi. Bu tadqiqotchilar Vo'gotskiy tomonidan yaratilgan g'oyalarni va buyuk nazariyotchi Rubinshteyn tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni amalga isbotlashga harakat qildi. Psixologiya fanining yangi-yangi qirralarini kashf qildi. Keyinchalik, Bu maktab vakillari Moskva va Leningrad psixologiya maktablariga asos soldi. Shu yillarda Gruziya psixologiya maktablari ham tashkil qilindi. Uning asoschisi (1886-1956) psixologiya bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi. 1909-1910 yillarda Uznadze-Letse universitetining faylasufi va psixologiya universitetiga o'qishga kiradi. U psixologiyaning asoschilaridan bo'lgan Vuntning qo'lida ta'lim oldi. Murabbiylardan Kof, Koler, Vert, Veymerlar psixologiyasidagi qator muammolar va nazariyalarni chuqur o'rgatadi. 1914 yilda birinchi jahon urushiga bir oy vaqt qolganda Uznadze o'zining jonajon Gruziyasiga qaytadi. Kutaisidagi psixologiya laboratoriyasini ochadi. Xotin-qizlar muallimlar tayyorlash gimnaziyasida psixologiya fanidan ma'ruzalar o'qiydi. 10 yillarning o'rtalarida Uznadze dastlab Kutaisidan keyin Tbilisi universitetida psixologiyadan ma'ruzalar o'qiydi. Shu davrning o'zida qator shogirdlar tayyorlab etishtiradi va ustanovka psixologiyasiga asoslangan Gruziya psixologlar maktabiga asos soladi.

Ustanovka-tayyor vosita bilan maqsadga kirib borish.

Sobiq sovet psixologiyasida uchta yo'nalish (norasimiy) ravishda mavjud bo'lgan:

1. Moskva psixologlar maktabi asoschilari Vo'gotskiy, Rubinshtesti, Leon'tev, Luriyalar. Bu yo'nalish psixologiyada nazaristlar yo'nalishi deb nom olgan.
2. Leningrad maktabi Amaliy psixologiya yo'nalishi bilan mashg'ul bo'lgan asoschidir. Vo'gotskiy, Anan'ev.
3. Gruziya maktabi ustanovka psixologiyasi bilan shug'ullangan. Ilk boshlanish davri Geshtat psixologiyasi bilan bog'langan asoschilari: Uznadze, Ananashvili.

Sobiq sovet psixologiyasi to'liq shakllanmadi. Chunki, 20 yillarda psixologiyaning metodologik asosi va printsiplari bir tomonlik xususiyatiga ega emas edi. Ya'ni psixologiyadan psixikaning taraqqiyotini aks ettiruvchi klassik qonuniyatlar bilan bir qatorda marksistik orientatsiyadagi taraqqiyoti ham kirib kelishi kerak edi. Bu erda ikkita qarama-qarshi g'oyalar orasida murosasiz kurash boshlandi. Qator olimlar psixologiyaning ideologiyasiga zid bo'lgan oqim vakillari sifatida psixologiya fanidan chiqib chiqardi, natijada psixologiyadagi yangi yo'nalishga moslashgan tadqiqotchilarning psixologiya fanining tadqiqotlarini amalga oshirdi.

Psixologiyani materialistik asosda qayta qurish bo'yicha qator olimlar: Chelepanov, Lazurskiy, Kornilov, Teplov, Rosalimo va boshqalar psixologiyaning materialistik asosidagi nazariyalarini ishlab chiqdi. Shu davrning o'zida Bexterev tomonidan ijtimoiy psixologiyaga xos bo'lgan jamoa refleksologiyasi haqidagi ta'limot yaratila boshladi. Bu ta'limotning hammasi rivojlanish xususiyatiga ega bo'lmadi. Bunga sabab psixologiya fanidagi ochiq krizisning vujudga kelishi va qator psixologiya maktabining paydo bo'lishi va bu maktablar orasidagi turli xil metodologik qarashlar psixologiyadagi qator ta'limotlarning u yoki bu maktab nazariyasiga xosligini dalillab bera boshladi. 20-yillarning oxiri psixologiya faniga madaniy-tarixiy rivojlanish tushunchasi kirib keldi. Uning asoschisi L.G.Vo'gotskiy hisoblanadi. L.G.Vo'gotskiy bu ta'limoti asosida oliy psixik faoliyatlarning rivojlanishi haqidagi ta'limoti sobiq sovet psixologiyasidagi butun yo'nalishni aniqlab berdi. Bu davrda psixologiya sohasidagi mutaxassislardan tashqari psixatriya va fiziologiya sohasidagi mutaxassislardan tashqari psixatriya va fiziologiya sohasidagi mutaxassislar ham fanga o'z hissalarini qo'shdi.

Bulardan – R.A.Lauriya o'zining klinik tadqiqotlari bilan o'zining psixatriya fanida jumladan bolalar psixatriyasida materialistik g'oyalarga asoslangan yo'nalishni yuzaga keltirdi va qator olimlar fiziologiya va anatomiya sohasidagi psixologiya fanining tabiiy asoslarini yaratib berdi.

50-yillarga kelgan paytda qator psixologlar: Teplov, Rubinshteyn, Leon'tev, Zinchenko P.P, A.V.Zaporojes, A.A. Smirnov, A.R.Rukich, P.Ya.Galperin, K.Z.Fabriy va boshqa qator olimlar psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni amalga oshirdi. Buning oqibatida 70 yillarda sobiq sovet psixologiyasida yangi yo'nalish faoliyat-psixologiyasi yuzaga keldi. Asoschisi – A.N.Lentev hisoblanadi.

Psixologiyaning tarmoqlari: ijtimoiy psixologiyaning asoschilari G.I.Andreeva, Kovalyov, B.D.Parichin, Kuzmin, Semeynov, A.V.Petrovskimy, L.A. Petrovskaya, N.N.Bogalova.

Meditsina psixologiyasida – A.R.Luriya, V.V.Svetkov, Yu.V. Polikov, A.N.Komskaya.

Umumiy psixologiyada – A.I.Leon'tev, B.F.Lomov, B.I. Teplov, V.F. Nebil'tsin, A.Asmirnov

Potopsixologiyada – B.V.Veygernik.

Injenerlik psixologiyasida – V.F.Zinchenko, Yu.M. Serekov, Klimov va bu qator sohalarda etuk mutaxassislar etishib chiqdi. 50-90 yillardagi G'arb psixologiyalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu erdagi marksistik orientatsiyadagi psixologiya shakllana boshladi.

Bundan tashqari G'arb psixologiyasida 70-80 yillarda Kongertiv psixologiya orientatsiya vujudga keldi. Bu psixologiyadagi psixik jarayonlarni o'rganish etnopsixologiyadagi xususiyatlarni va psixik taraqqiyotini umumlashtirish natijasida amalga oshdi.

X u l o s a:

XX asr boshlarida 1911 yillarda G'arb psixologiyasida vujudga kelgan ochiq krizislarning sabab salohiyatini tahlil qilib, o'rganish ochiq krizisning yuzaga kelish sabablarini o'zaro o'rgangan holda izohlash hamda shu davrda yashagan G'arb psixologlarining hayot faoliyatining sababi oqibatlarini engish natijasi orqali krizisdan chiqib ketish tomonlarini hamda Uotson, V.Vunt, E.Benginer, Gorrundayk, I.Pavlov va h.k.psixologlarning ochib bergan tajribalarini fanga tadbiiq etilgan tomonlarini tahlil qilib o'rganish.

T a y a n c h t u s h u n c h a l a r :

Bixevirizm

- *psixologiya predmeti psixologiyani emas balki inson va hayvonlar hulqini o'rganishdan iborat degan fikrni ilgari suruvchi va himoya qiluvchi oqim.*

Patopsixologiya-

psixologiyaning bosh miyaning zararlanishi yoki uning etarlicha rivojlanmaganligi natijasida kelib chiqadigan psixik kasalliklarni o'rganuvchi sohadir.

Injenerlik psixologiyasi

- *psixologiyaning texnika moslamalari bilan uni boshqaruvchi kishilar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish, o'zaro ta'sirni tekshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus soha.*

Orientatsiya

- *o'zining turgan holatini aniqlash, o'z muhitini yaxshi bilib ish ko'rish.*

N a z o r a t s a v o l l a r i :

1. *1910 yillarda yuzaga kelgan ochiq krizisning asosiy sabablari.*
2. *G'arb olimlarining krizis vaqtida olib borgan ishlari.*
3. *Bixeviorizm tushunchasining tahlili.*
4. *Patopsixologiya tushunchasining mohiyati va talqini.*
5. *Injenerlik psixologiyasi.*
6. *Orientatsiya tushunchasi.*
7. *Bexterev yaratgan ta'limot mazmuni va mohiyati.*
8. *Ustanovka tushunchasi.*
9. *Sobiq sovet psixologiyasi yo'nalishining nechta yo'li mavjud?*

Maqsad: *Antik psixologiya haqida tushunchaga ega bo'lish hamda, bilim, ko'nikmalar bilan qurollanish. Antik psixologiyani hozirgi davr psixologiyasi bilan o'zaro bog'liq, farqli tomonlarini o'rganish.*

REJA:

1. *Antik psixologiya namoyondalarining g'oyalari.*
2. *Antik davrdagi jon haqidagi ta'limotning ilk omillari va g'oyalari.*

Antik falsafaning eng yirik nomoyondalaridan psixologiya haqidagi dastlabki ilmiy mulohazalarni keltirgan Aristotel' hisoblanadi. Plotonning shogirdi bo'lgan Aristotel' o'z ustozining fikrlariga tayanib tanqidiy yondoshib o'zining «Jon haqidagi ta'limot asari bilan psixologiyaga asos soldi. U ruhni «tan bilan uzviy bog'liq» dedi. Uning fikricha ruh moddiy ham emas, jismoniy ham emas, balki moddiy narsalarga xos bo'lgan hodisadir. Aristotel' birinchi bo'lib ruh va jonni tananing ajralmas ekanligi g'oyasini surdi.

Ruh haqidagi materialistik falsafa doirasida rivojlandi. Antik materializmning yuqori cho'qqisi Demokrit va uning ustoz Levkipp asos solgan atomistik materializm edi. Demokritning ta'limotiga ko'ra, ko'rinmaydigan zarrachalaridan moddalardan tashkil topgan. Barcha atomlar doimo harakatlanib turadi. Ular faqat shakl jihatidagina bir-biridan farq qiladi. Shunga ko'ra qattiq, suyuq, gazsimon suyuqliklr paydo bo'ladi.

Demokritning fikricha tana va ruh egasi bo'lgan inson, xuddi shu atomlardan tarkib topadi. Odamning tanasi qo'pol, g'adir-budir, sekin harakatlanadigan atomlardan tashkil topadi. Ruh esa silliq, dumaloq, sirpanchiq, eng harakatchan atomlardan tashkil topadi.

Odamning tanasi qo'pol, g'adir-budir, sekin harakatlanadigan atomlardan tashkil topadi. Ruh esa eng silliq, dumaloq, sirg'anchiq, harakatchan, atomlardan tashkil topadi.

Ruhni tashkil qiluvchi atomlar tanamizdan chiqib ketmaguncha biz o'zimizni aniqlaymiz. Shu atomlardan bir qismi tanamizdan chiqib uyqu va shunga o'xshash ongsiz holat ro'y beradi. Agarda deyarli barcha atomlar tanamizdan chiqib ketsa behushlik holati ro'y beradi. Barcha ruhiy atomlarning tanadan butunlay ajralib chiqishi, o'linga olib keladi. Demokrit ruhning abadiyligini inkor qiladi.

Antik davrda Demokrit, Sakrat, Plutok, Aristotellardan tashqari taxminan eramizdan avvalgi P-Sh asrlarda yashab o'tgan Epikur, Lukretsiy, Kar kabi faylasuflar ham jon haqidagi ta'limotning rivojlanishiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar. Bu mutafakkirlar o'zlaridan ilgari surilgan psixologiya haqidagi ta'limotni boyitibgina qolmasdan balki yangi-yangi fikrlarni ilgari surganlar. Shuning uchun ham bu davrlar psixologiya tarixi fanidan Antik psixologiya yoki Aristotel'dan keyingi klassik psixologiya deyiladi.

Demokritdan keyingi materializmning ko'zga ko'ringan vakillari grek filosofi Lukretsiy, Karll edilar.

Epikur moddiy bo'lmagan substansiyaning mavjudligini mutlaqo inkor qildi. «Ruh butun organizmga tarqalgan juda nozik qismdir» deb hisoblaydi. Ruh ham jon ham jisimiy tabiatga xosdir.

Lukretsiy psixik hodisalarning tanaga bog'liqligini tajribaga asoslanib isbot qiladi. U «aql ham tana bilan birga o'sadi va so'ladi». Aql ham tana singari kasallikka duchor bo'ladi: mastlik natijasida ajralishadi, degan dalillar keltiriladi. Lukretsiy bu materialistik dalillarga asoslanib ruhning abadiyligi to'g'risidagi ta'limotning yolg'onligi haqida xulosa chiqaradi.

Umuman antik falsafada psixologiya haqidagi ta'limotning ko'pgina ko'rinishlari fikrlar tarzida rivojlanadi. Masalan, antik falsafada sezgilar haqidagi idrok, fikrlash qobiliyati haqidagi (tafakkur) insondagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar (iroda), affektiv holatlar, haqidagi birlamchi materializm nuqtai nazaridan ilg'or fikrlar ilgari surildi. «Shuning uchun ham biz antik falsafani to'g'ridan-to'g'ri antik psixologiyaning rivojlanish tarixi deb ayta olmayiz»-deydi rus olimasi A.N.Jdan.

Antik psixologiyada Jon ruh haqidagi ta'limot yoki ruhning vujudga kelishi haqidagi ta'limotlar antik vrachlarning tadqiqotlari va ularning fikrlari bilan mustahkamlangan. Antik vrachlar o'zlarining dunyoqarashlari va psixika haqidagi fikrlari bilan antik faylasuflarning g'oyalarini rivojlantirgan va ba'zi paytlarda esa bu faylasuflarning fikrlariga qarama-qarshi fikrlarni ilgari surganlar.

Masalan: Eramizdan avvalgi U1 Asrda A.Kratonskiy qadimgi rim vrachi Aristotelning fikrlariga qarama-qarshi ravishda har qanday fikrning vujudga kelishi asosiy mavjud degan materialistik g'oyani ilgari surgan va bu fikrlarning asosi boshda joylashgan deydi.

Eramizdan avvalgi U asrda o'z davrining buyuk vrachi bo'lgan Gippokrat o'zining meditsina sohasida olib borgan tadqiqotlari asosida inson organizmida to'rtta suyuqlik mavjud ekanligini aniqlaydi. Ya'ni insonda to'rt xil temperament turi mavjudligi fanimizning 1-mavzu mashg'ulotida aytib, tushuntirilib o'tilgan. Gippokratning o'z ta'limotiga XX asr boshlariga qadar (Platon ta'limotiga qadar) psixologiya, meditsina, falsafa fanlari eng asosiy ta'limot hisoblangan. Gippokratning fikrlari bilan antik psixologiyadagi Jon haqidagi ta'limotni meditsina nuqtai nazaridan boyitdi.

Eramizdan avvalgi Sh asrda Aleksandriyalik vrachlar Gerofill va Eroziyat nervlarni kashf etdi. Umuman gavda emas, balki nervlar miya, psixika bilan chambarchas bog'liqligi aniqlanadi.

Eramizdan avvalgi P asrda yashab o'tgan rimlik vrach Galen psixikaning anatomo-fiziologik negizi haqidagi ta'limotni boyitdi. U o'zidan oldingi vrachlarning ta'limotlarini o'rgangan holda, o'z zamonasiga ko'ra ancha ilgarilab kelgan fikrlarini ilgari surdi. Galen bosh miya va orqa miyaning tuzilishi va ularning funksiyalari haqida ilk bor fikr yuritdi, uning fikricha «tananing har bir qismi nervdan iborat» hech bir harakat, hech bir sezgi usiz yuzaga kelmaydi deydi. U orqaa miyaning funksiyalariga bog'liq tadqiqot o'tkazdi. Arsitokratning «ong» haqidagi, Gippokratning «temperament» haqidagi fikrlarini tanqidiy o'rgandi. U 13 ta temperament turini ajratib ko'rsatdi. Shundan faqat bittasi – yaxshi, qolgan – 12tasi xulqdan og'ishdir deydi.

Nazorat savollari:

1. *Demokritning ruh haqidagi materialistik ta'limotidagi asl mohiyati?*
2. *Eramizdan avvalgi P-1 asrlarda Jon haqidagi ta'limotiga hissa qo'shgan faylasuflar kimlar?*
3. *Epikur bilan Lukreysiylarning ilmiy g'oyalari nimada aks topgan?*
4. *Anitik psixologiyada antik vrachlarning tadqiqotlari va fikrlari haqida?*
5. *Eramizdan avvalgi U asrda yashagan buyuk vrach kim va uning meditsina sohasidagi ishlari?*
6. *Eramizdan avvalgi P asrda bosh miya va orqa miyaning tuzilish va funksiyalari haqida fikr yuritgan vrach kim?*

MUNDARIJA

13.Psixologiya tarihi fanining predmeti va vazifasi.....	1
14.O'rta Osiyo mutafakkirlarining psixologik qarashlari.....	7
15.Psixologik bilimlarning O'rta asrlarda va uyg'onish davrida rivojlanishi.....	12
16.Ong haqida tushuncha.....	15
17.Ruh haqida tushuncha.....	19
18.Psixologiyaning ong haqidagi bilimlar doirasining rivojlanishi.....	22
19.Psixologik bilimlarning ruh haqidagi ta'minot asosida rivojlanishi.....	28
20.Xulq – atvor haqidagi ta'limot.....	31
21.XIX asrning birinchi yarmida nemis empirik psixologiyasining mustaqil fan sifatida rivojlanishi.....	34
22. XIX asrning ikkinchi yarmida psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi	38
23.Garb psixologiyasida ongli Krizisning vujudga kelishi va psixologiya maktablarining shakllanishi.....	44
24. Antik psixologiya.....	49

